

Ahmad A'ZAM

«HALI HAYOT BOR...»

Qissa

«Yoshlik» jurnali

1-son, 2011 yil

Ko'mirning qorasi bir pasda tarqaladi-ya. Tushganiga qancha, bo'lsa, biron soat bo'lgandir-da, shamol yo yengilroq shabada ham yo'q, gardi o'tgan-qaytganning egniga ilashadimi yo oyog'idagi kalishining tishiga kirib qoladimi, mahallaning u boshigacha boribdi. O'ylasang, yuragingni vahm bosadi: xuddi joni bordek, tushgan joyidan hammayoqni qoraga bulg'ab, o'zidan-o'zi, sekin tarqalib-taralib ketaveradi... Xuddi qorong'i elanib-sizib cho'kayotgandek. Yana, yomon gapdek...

Haqiqatan-ey, yomon gap ham shu, bir chiqmasin, keyin tamom – to'xtamaydi, o'zicha ko'payib, bolalab ketaveradi. Mana, bir odamning mazasi yo'qroq ekan, deb ko'ring, shunchaki, jo'rttaga gap chiqaring, kun o'tmay, o'zingizni uning janozasiga aytib keladilar, bormasangiz, yana odamgarchilikdan chiqqanga yo'yadilar. O'lsang, sening o'ligingni ham shu odamlar ko'taradi-ku, deb qo'rqitadilar yana. O'v birodarlar, es joyidami, o'zim to'qigan mish-mish bu, oqibatini o'ylamabman, deb hargiz urining, borib allaqachon uning oilasidan ko'ngil so'raganlarni shafe keltiradilar. Hay-hay demasangiz, savob uchun go'riga yetti ketmon tuproqni zo'rg'a sanab tortganlar ham chiqib qoladi. Yaxshi odam edi-da, ketmon talash bo'p ketdi-ey, deb qo'yishadi yana. Tavba, yoqangni ushlaysan! Birov to'g'risida sovuq gap ko'ngilni isitadimi yo?..

A'lam shunaqa o'ylab ishlasa, g'ayrati qo'zib, qadamlari o'z-o'zidan tezlashadi. Bu la'nati ko'mir haqiqatan ham bema'ni ekan, torgina ko'cha halitdan xuddi surma sepganday bo'lib ketdi. A'lamning o'zi ham Afrikaning Nubiyami, Namibiyami degan yurtlaridan nonga pul ishlashga kelgan ko'mirchi-mardikor bo'ldi qoldi. Qizig'-a, qop-qora odam qop-qora ko'mir tashib yursa. Issiq o'lkalar, ko'mirga balo bormi?..

Ammo-lekin bugun katta ishni bitirdi. Bitta qizil muqova guvohnomani ko'rsatish bilan bitar ekan, shuni qishning sovuqlarida tirishib yotmay, oldinroq qilmaydimi? Yozda, tagida TNO «Volga» bilan borganda, balki pulini ham olmas edilarmi? Yo'q, pulini bermasa, bo'lmas-ku, ammo mashinadan tushmay, «Hoy, manavi manzilga ikki tonna to'kib qo'yinglar-chi, mana, puli», deb o'zi qaytib kelaversa ham bo'lar ekan. Ha, mayli, xo'janing ham aqli tushdan keyin kiradi. Siyosat qilishni ham boplash kerak. Buni ham bugun borib ko'rgandan keyin bildi-ku.

Avval katta-katta bo'laklarini kiritib olgani yaxshi bo'ldi. Tushgacha tugatar, a?

– Eh-he, do'stim, bu qanaqasi? Shaharning qoq o'rtasi, gaz yo'qmi? E-e, toza... Yig'ishtiring bu ishni! Tez bo'ling!

A'lam qarasa, besh-olti odim narida Turdiali, yomg'irpo'shining barini ham ko'tarib olgan, o'zlarini ko'mirdan tortyaptilar. Bu endi qiliq ham emas, qichiq! Xuddi ko'mir nima, uning qorasi nima, bilmaydigandek; tumshug'ini ham jiyirgan, ozoda.

– Salomlashaylik. Yaxshimisiz?

– Salom, salom! Men ko'chaning boshidan salom berib kelyapman. Qani, do'stim, moshinga! Abduzafar akamning xizmat moshinlari.

– Shu ahvolda-ya?

– Ahvolning kattasi u yoqda, do'stim! Bo'ling, bo'ling!

– Turdiali, kelsangiz, men yo'q ekanman.

– Iy-e. Nega yo'q bo'lasiz? Mana, turibsiz-ku. Meni yolg'onga undamang.

– Xo'p, bo'lmasa, ko'rdim, ko'mir tashiyapti ekan, deng.

– E-e, ko'rgan bo'lsang, a nima, gaping o'tmadimi, deydilar. O'zi, do'stim, nega ko'mir sizga kelib, men qiynalaman? Abduzafar akam tez, dedilar. Hozir yurasiz, tamom!

– Shunday, a?

– Hali hammomga tushaman, desangiz edi!

– Ha-da, ko'mirning qorasi sovuq suvga ketadimi?

Hamkasb hamxonalar bir oz manjashib, janjaldan beriroqda murosaga to'xtadilar. Bu orada A'lam uch qatnab, olti chelak kirgizib oldi, Turdiali olayib ko'rdi, boshini sarak-sarak qildi, tilini cho'qillatdi, lekin ancha o'ziga kelib, boyagi yonishi bosildi, oxiri yalinishga ham o'tdi.

– Do'stim, voqeaning avzoi yomon. To ustimni kiygunimcha, Abduzafar akam ikki marta kirdilar, hali ham ketmadingmi, deb. Tinchlik bo'lsa, xizmat moshinlarini bermasdilar, do'stim. Ha, meni aytdi, dersiz.

– Jo'ra, nima bo'lgan bo'lsa, bo'lib bo'lgan, bo'yog'i singan. Endi zudlik bilan boramizmi, pudlik bilanmi, farqi yo'q. Undan ko'ra, qarashib yuboring, kechgacha shunday tursa, eh-he...

– Turadi, do'stim, jin ham urmaydi ko'miringizni.

– Kechgacha-ya? Butun mahalla qorayib ketadi. Anjelani kelin qilib tushirsa bo'ladi.

– E do'stim, qo'ying, botib ketmaydimi! O'zi to'rt-besh yilda buziladigan joylar. Abduzafar akam menga ishondilar. Endi siz yuzimni yerga qaratmang. Birga ishlaymiz, nima, ko'mirchalik ham qadrim... ko'mir o'rnida ham ko'rmayman, deng, mayli. Yoz bo'yi o'ringizga ishlab berdim-a. Xo'p, men qarab turaman, siz tez chayinib oling. Bir ko'rinib kelsangiz, bo'ldi. Meni yer qilmang. Keyin... hay, balki birgalasharmiz. Hammomni ham, boshqasini ham.

– Bari bir tozalanib, pokiza kiyinib borish kerak. Jangga ham tuzanib kiradilar. Rasmi shunaqa. Bu ham mayli-yu, lekin... siz...

– Ey-y, bo'ling...

– O'shanaqasi olib ketsa, siz ushlab bergan bo'lib qolasiz deyman-da?

– E-e, shu gaplarni!.. Hazilga ham aytmang. Men-ku, do'stingizman, bitta-yarimta qora ko'ngilda yetkazsa, haqiqatan ham... Hozir odam o'ziga ishonmaydi. Rost, men do'stingizman deyapman, lekin o'shanaqa kunga tushganim yo'q, tushsam, qaydan bilaman, chidaymanmi yo aytib qo'yamanmi? E-e, to'g'risi-da.

– Bo'lmasa, jo'ra, ko'p qo'rqavermang, hamma uxlaganda yo saharda formada kelib olib ketmay, sizni yuborishdimi, demak, ja unaqa emas... hali yashab tursa bo'ladi. Undan ko'ra, jo'ra, yechining, ishkiyim bor, ikkovlashsak, birpasli ish! Keyin yuvinib, Usmon mo'ylovning lag'monidan bittadan uramiz-da, tushdan keyin uzun-qisqa salom berib boramiz o'sha sassiqlik dargohingizga...

Turdiali A'lamning shunaqa qaltis hazillaridan qo'rqdimi yo qoraga belanib ko'mir tashishdan cho'chidimi, yoki uni hozir olib keta olmasligiga aniq ko'zi yetganidanmi, ishqilib, «Buni alli-belli kiringing-da, darrov boring. Men Abduzafar akamning ko'ngillarini tinchitib turaman», dedi-da, ur-a qochdi.

U to'g'ri borib, ko'cha og'zida qarab turgan «Volga GAZ – 21»ning orqa o'rindig'iga havasli bir jiddiyat bilan o'tirdi, Irismat akaga «Haydang, aka!», dedi.

Abduzafar aka shu paytgacha biror marta A'lamni bunaqa atoqlab so'rattirmagan. Yana odam jo'natib, xizmat mashinasini berib! U odam ko'p odamga boshliq, A'lam bir muharrir. U A'lamga vazifa buyursa ham, to'g'ri o'ziga aytmaydi, bosh muharrirga topshiradi, bosh muharrir o'rinbosariga yo bo'lim boshlig'iga tayinlaydi, ular A'lamga yetkazadi. Direktor kotibasi orqali ham aytirishi mumkin, lekin bu ham istisno – shunday rahbarning o'zi bir xodimga alohida ish topshiradimi, demak, yaqin oladi, bu ham hammaga nasib emas. Lekin bugun...

Xo'-o'sh, keyingi paytlarda A'lam direktor buncha so'rattirgan nima ham qildi ekan? Hech narsa

yo'qdir, bor bo'lsa ham, arzimagan bir ish bo'lib chiqadi, lekin padarlar'nati g'ashlik... ko'ngilga bir tuxum qo'ygandan keyin qurtlab, hamma yog'ini teshib-kavlab kirib ketaveradi.

Ablah, buning ikki tonnasi nechta ikki chelak chiqar ekan-a? O'zim bir pasda kiritib olaman, deb o'ylabdi-ya. Bironta qo'shni g'altagini berib tursa edi. Bular ham «Hormang! Iy-e, o'zingizga qoptida», deyishdan nariga o'tmaydi.

O'zi xodimlar orasida Abduzafar aka bilan tortinmay gaplashadigani shu, A'lamning o'zi, chunki dolonda kuniga ikki-uch marta, gohi kunlari ko'proq ham ko'rishadi. Turdiali chekmaydi, Xosiyat yukli, Irina, chekilsa, darrov qo'li bilan burunchasini yelpib qoladi, ichkari hovlida qalashgan bochkalardan oqqan bo'yoq shunaqa yomon qo'lansaki, taqa-taq yopiq derazalarning tirqishidan kirgan achchiq hidi ham burunni yulib olay deydi! Shuning uchun A'lam har soatda dolonga chiqishga majbur, bu yerda esa Abduzafar aka qo'lini orqaga qilganicha, ko'zoynagini yiltillatib yo u yoqqa, yo bu yoqqa borib kelayotgan bo'ladi. Yana sayriga «hu-ush-sh» degan pastgina hushtagi ham jo'r. Juda g'alati lekin, to'qqizda ishga keladi, kechikmaydi – qoida, kabinetida yarim soat-qirq daqiqa o'tiradi, bu qachon qanday, keyin sekin chiqadi, qo'lini orqaga qilib, bir oz qarab turadi, keyin «hu-ush-sh» deb, uzun dolonning bu boshidan u boshigacha borib kelaveradi, zaril telefonga Vazira chaqiradi, bir tushlikka boradi, uyida ovqatlansa ehtimol, tushdan keyin ham, agar raykom yo goskompechatda biron yig'ilishga ketmasa, ahvol yana shu. Ammo-lekin nashriyotda ish bir maromda mildirab qaynaydi, direktor dolonda yurgandan keyin xonama xona salanglashga yo ko'cha-po'chani aylanib kelishga kimda yurak bor? Xonalarda shaxmat-paxmat degan gaplar ham yo'q, behojat hech kim chiqmaydi, Ha-da, Abduzafar aka xayol surib yurgani bilan albatta «Hu-ush-sh, qayoqqa?», deydi, haligi, anuv joyni imo qilganga, ruxsat bergandek, qoshini «Ha-a» deb parishonxotir ko'tarib qo'yadi, dabdurustdan uchragan eshikka kirib, hushillaganicha xodimning ustidan uning stoliga qarab turaverishi ham bor.

Lekin o'zining yomonlikka hushi yo'q. Yomon ishni, yomon gapni, umuman yomon tomonga sal aloqasi bor narsani eshitsu, ranjiydi. Xodimlarning aytishib qolganlari, tartibsizlik yo kechikishlarini, iloji bo'lsa, ko'rib ko'rmaslikka oladi, ustidan chiqib qolsa, noiloj, astoydil kuyinadi: «Tartib yaxshiku, nima qilamiz buzib, a?», «O'n besh daqiqa barvaqt uyg'onish yaxshiku, nima qilamiz ko'p uxlab, a?» yo «Tinchgina ishlab yurganimiz yaxshiku, urish-janjaldan baraka toparmidik, a?» deydi bunaqa paytlari.

Abduzafar aka yaxshilikni yaxshi ko'radi.

Uning ko'ngliga juda og'ir oladigani – xodimlari haqida tashqaridan keladigan noxush gaplar. Masalan, qarang, kechqurunlari ko'cha to'la qalang'i-qasang'i piyonista, siqqanicha olib borib tiq hushyorxonangga, planingni bajar, yo'q! – mablag' plani to'lmas emish, ularga tuppa-tuzuk kiyingan, maoshi yonchig'ida yuradigan odamlar kerak! Ana shunaqa paytlari Abduzafar akaning diqqati oshib, ko'p gapiradi: «Yo, nima kerak shu, a, ko'chada ichishimiz? Kechqurun, ishdan keyin, uyingda, bolachaqaning oldida, sho'rvaginani osdirib qo'yib, rafiqaga ikki og'iz shirin gap bilan qilsak, a, shu ishni? Achchiqqina gazak, piyolani shishaga jiring urishtirib... A? Rafiqqa xursand, bolalar shod-xurram, o'zimiz yayragan, sarimsoq piyoz yesak ham bo'ladi. Endi buni qarang, majlis, muhokama, chora ko'r, hayfsan ber, shaxsiy varaqasiga yoz, uchinchisi bo'lsa, bo'shat... E-e... yaxshi hayot kechirsak bo'lmaydimi, a?» U kishi «E-e, xudoyim, tavba!» demoqchi bo'ladi-yu, eshitgan quloqqa yaxshi emas, o'zi shu keyingi gapni ham bironta odam hayotimizni yomonlayapti deb tushunsa...

A'lam chekishga chiqqan paytlari ba'zan-ba'zan Abduzafar aka uning yonida to'xtab, undan-bundan gaplashib qoladilar. Bir-ikkita xodim A'lamning Abduzafar akadek rahbarning oldida kulishib turishiga g'ashiqadi, lekin A'lamning o'zi: «Shu bechora zerikadi-ey. O'zi yaratgan tartiblardan o'zi siqiladi. Bo'lmasa, kap-katta, rahbar odamga kun bo'yi dolonda pishirib qo'yibdimi?», deydi. Bu gap endi xudbinligidan, chunki chekish bema'lol emas emish. Boshda buni xayoliga ham keltirmagan edi,

lekin Turdiali «Do'stim, dolonda chekishingiz yaxshi emas. Abduzafar akam «Shu bola ko'p chekadiya», dedilar. Men Abduzafar akamni bilaman, bekorga aytmadilar», deb qoldi. «Qaerda chekay? – dedi A'lam. – Har soatda anuv joyga bormayman-ku. Hidi ham bor.» «Tashlang, – dedi Turdiali. – Abduzafar akam hurmatimni qilibdi, deb xursand bo'ladilar. O'zim ham aytib qo'yaman.» «Bekorlarning beshini aytibsiz. O'zi kamroq chiqsin. Nashriyotga direktormi yo dolonga qorovulmi?», dedi A'lam. Bunaqa gap ko'p o'tdi, lekin, bari bir, dolonda chekishdan maza qochdi. Noqulay-da. Tutunni ichingga tortishga-ku tortasan, lekin qayoqqa puflaysan? Pastga puflasang – bepisandlikdek, yonboshga – oliftalik, tepaga – sira iloji yo'q, to'g'riga – odamning yuziga tutun qaytarmaysan-ku.

Bugun ertalabdan bu tartib buzildi. To'g'ri Markazkomdan qo'ng'iroq bo'lib, dilni namozshom qildi. Nimadir horiqulodda bir gapki, Gulimoh Yulduzovnaning o'zi goskompechatni bosib tushib, to'g'ridan-to'g'ri bir nashriyot direktoriga sim qoqyapti! Salomlashdi, lekin o'ylashga imkon bermay, «Kamolov A'lam hali ham sizda ishlayaptimi?», deb so'radi. Abduzafar aka shoshganidan «Ha!» deb, borini aytib yuboribdi! Shu asnoda Gulimoh Yulduzovnaning boshqa telefoni jiringlab qoldi, u go'shakni olib, Abduzafar akaga: «Keyin gaplashamiz», dedi-da, bu go'shakni qo'yib qo'ydi. Noaniqlikni qarang-da endi, nimaga Markazkomdan kelib-kelib bir bola so'raladi, yana familiyasi bilan?! «Hali ham»mi degani nimani bildiradi? «Nima uchun haligacha ishlayapti?» demoqchi edimi? Lekin bu bola haqida yuqoridan yo tegishli joylardan hech bir ishora tushgani yo'q, nashriyot direktori tush biladimi yo bir maxsus bo'limi bo'lsa ekan, muayyan xodimning bosgan qadamini kuzatib, biron ish qilib qo'yishining azmoyishini olib, oldindan bo'shatib tursa! O'zi hozir Gulimoh Yulduzovna aytmasa, dabdurustdan uning familiyasini ham eslolmas edi. Ha, shu doim dolonda tutatib turadigan bola-da. Lekin nima qilib qo'ygan bo'lsa?

O'zi, Abduzafar aka shu ayolni ko'rsa, ruhi tushib ketadi, nimagadir tortinib, o'ng'aysizlanib, hatto betidagi go'shtlari so'lishib, gavdasi shalvirab qolgandek bo'ladi. Qomat hali ham sambittoldek, qosh doim chimirilgan, shunaqa tanlab, bir did bilan kiyinadiki, unga qaragan odam yanglish tasodif bilan shunaqaga uylanib qolmaganiga shukrlar qiladi. Bir umr kibru nazokat bilan yashab bo'ladimi, axir. Qo'limni noto'g'ri ushlading, deb bir turilsa! Siqilib o'lib ketasan-u. Rafiqa kishi ming chiroyli bo'lmasin, muzeyga qo'ymaysan, uni ham quchoqlash kerak, axir, ey, yashash kerak u bilan!

Nimaga A'lam bilan uning o'zi shug'ullanib qoldi? Tinch yursa o'lib qoladimi, a? Nima qilgani va buning yuqoriga qanday bo'yoqlarda yetganini endi bilib bo'lmaydi, buni hech kim aytmaydi ham, agar ham A'lamning o'zidan bir gap chiqmasa...

Abduzafar aka Vazirani yugurtirdi.

Hali kelmabdi! Ishga rahbardan keyin kelishni qanday tushunish mumkin?

Abduzafar akaning diqqati oshib, telefonga Vazirani qo'yib, A'lamlarning xonasiga o'zi bordi. Go'yo o'ziga A'lam «Uzr, taysallab qoldim», deya peshvoz otiladigandek. Dolonda bosh muharrir o'rinbosari Karim Umarov uning hushtak chalmayotganidan sergak tortib, darrov ergashdi.

Turdiali esnagancha jurnal varaqlab, Xosiyat tirnog'ini, Irina labini bo'yab o'tirgan ekan, Umarov Abduzafar akaning orqasidan ko'zining paxtasini chiqargan edi, qizlar patarot bo'lib ketdi, Turdiali qapchib turdi.

– A'lamni topib keling. Irismat akangizga meni aytdi, deb ayting.

– Yerga kirgan bo'lsa qulog'idan, osmonga chiqqan bo'lsa oyog'idan! Bosh borib, oyoq kelsin! Tez! – dedi Umarov ham.

Turdiali pitirlab qoldi. Dolonga uchib chiqdi, qaytib kirdi, keyin peshanasiga shapatilab, telefonga yopishdi. Umarov unga senlab:

– Nimaga kalovlanasan? – deb baqirib berdi.

Dolonda Abduzafar aka Umarovga ham og'rinib, ham hayron qaragan edi, u darrov bosilib, qo'lini ko'ksiga qo'ydi-da:

– Bo'ldi, tushundim, hozir hammasi yest bo'ladi, – dedi.

Abduzafar akaning o'zi uning nimalarning hammasini tayyor qilishini tushunmadi, kecha biron topshiriq aytgandirman degan xayolga bordi.

Hozirgi yoshlarni juda tushunish qiyin-da. Ish bor, oylik tayin, yozgan narsalari gazeta-jurnallarda bosiladi, to'plamcha bo'lib chiqadi, qalam haqi naqd, non butun, tinchgina ishlab yurmaydimi, a? Gulimoh Yulduzovna «A'lam»ga «jon» qo'shmadi?.. Boshqa biron ilgak yo'q, qisqa gapdan nimani ham anglaysan?

– Mana, yozganman. Mana! – deb eshikdan otilib Umarov kirdi. – Birinchi nusxani Shohidga berganman, ikkinchisini bo'limga, bir nusxa o'zimga olib qo'yganman. Shohid o'shanda chora ko'rganda shu gaplar yo'q edi. Yo'q, quloq qoqmadi. Tortmaga tashlab qo'ygan. Mana, birinchi, «Qabr ustida nutq», tragediya!

Abduzafar akaning yuragi shuv etdi, lekin gap nimadaligini aniq bilmay, Umarovga qarab turaverdi.

– Ikkinchi, ko'z yosh – yigirma uchta she'rda! Uchinchi, kuz – to'qqizta she'rda! Oltita she'r qish haqida. Bitta eshak haqida satira-yumor ham bor! Navvoyi g'azaliga ikkita, Lutpi g'azaliga bitta muxammas. Uchchovida ham davrdan nolish. Mayli, nolish feodal kilirkal adabiyotning mohiyati, lekin bugungi yosh avlodga nima daxli bor?

– Rostdan, nima daxli bor? – deb chindan ajablandi Abduzafar aka. – O'xshatma qilib yozgandir-da.

– Heh-he, hamma gap shu o'xshatmasida-da! – dedi Umarov o'zini orqaga tashlab. – Go'yo Navvoyi, Lutpi tilidan o'xshatma qilib, tagiga bugungi davrdan norozilikni tiqib yuborishadi. Bunaqalar mendan qutulib bo'pti! O'qib beraymi o'shanaqa... topgan joylarimni?

– Yo'-o', yo'-o'q, – dedi Abduzafar aka cho'chinqirab. – Xulosa?

Buning ham tiliga tersak chiqqan. Navvoyi!

– O'tkazmayman dedim! S'ezdga bag'ishlangan sonning ichi to'la ko'zyosh, kuz, sovuq qish, o'tkazib bo'pman!. Qadimgi greklarning tragediyasi shu songa nimaga kerak? Bahor haqida she'rlar bor, hushyor turmasang, shunga ham yomg'irni tabiatning yig'isi deb tiqib yuborishadi-da.

– Maqsad? – dedi Abduzafar aka o'smoqchilab, u hali ham nima gapligini tushunmayotgan edi. – Nima aloqasi bor?

– Bor-da aloqasi. To'plamga redaktor qilib Shohid shu bolani qo'ygan! Yotig'i bilan tushuntirsam, meni savodsizga chiqardi. Bola! Yo'q, betimga aytmadi, munaqa tirjayib qaraydi! Haydash kerak. Xulosa shu! Ya'ni mening fikrim, – dedi Umarov.

– Siz nima... biron gapdan xabaringiz bormi? – deb umid bilan so'radi Abduzafar aka.

Umarov pishillab nafas oldi, yelkalari ko'tarilib tushdi.

– Nihoyat-e! Xabarim bo'lmasa ham aniq bilardim. Ko'nglim sezgandi-da beishkal yurmasligini. Siz ham bir nazarkarda odamsiz, hu yozda aytuvdingiz, shu boladan ehtiyot bo'l, dunyoqarashi buzuqroq deb...

– Shunaqa degan ekanmanmi? – deb hayron bo'ldi Abduzafar aka.

Shunaqa hushyorlik qilgan bo'lsa, yaxshi lekin... Asli bu gapni, Karimning o'zi aytgan, Abduzafar aka o'shanda ham «Shunaqami», deb qo'ygandir...

– Degansiz! – deb xursand bo'ldi Umarov. – Shunday zo'r-zo'r ko'rsatmalarni berasiz-da, keyin eslamaysiz. Men yozib yuraman. Xo'-o'sh, kadrlarga aytgan edim...

Abduzafar aka yana hayron bo'lib qaradi, indamadi.

Umarov ovozini pasaytirdi:

– Bitta zasepka bor – prapiskasi Yangiyo'lda! Oppa-oson, hammasi qonuniy bo'ladi. O'ttiz kilometr radiusdan tashqarida ekan, deyiladi, tamom! Birov metr lab o'lchab chiqibdimi?

Qarang-ey, odam past ovozda ham qattiq gapirishi mumkin ekan!

– Hali hech kim hech narsa degani yo'q, Karim! – dedi Abduzafar aka.

– Shartmi? Oldini olib qo'yaylik. Surayyoga aytgan edim, qabulxonada, kiraversinmi? Abduzafar akaning bosh irg'ashdan boshqa iloji qolmagan edi.

Umarov bo'shshibroq chiqdi, qo'lida dastro'moli bilan burnini chimdilab, qo'ltig'ida teztikkich, Surayyo eshikni ochdi. Kirishi bilan aksirdi, dastro'moli bilan burni, ko'zlarini artidi-da, salom berib, o'sha yerda turib qoldi.

Abduzafar akaning ichi achidi:

– Hali ham o'tmadimi? Sanatoriy naf qildi, degan eding-ku?

– Yaxshi bo'luvdim, yana boshlandi-da. Odamlarning sog'lig'iga zarari yomon, bosmaxonasini sudga beraylik, yutar edik.

– Hozir SES shug'ullanyapti, – dedi Abduzafar aka. – Bu yoqqa kel, yuqmaydi-ku, o'tir. Ha?

Surayyo kelib o'tirishdan oldin, qo'ltig'idagi teztikkichni, ichidan bir varaq qog'ozni uning yuzasiga olib, Abduzafar akaning oldiga qo'ydi.

– Menda hali Kamolov haqida hech narsa yo'q. Lekin Umarov tayyorla deyapti.

Abduzafar aka Surayyoga savol nazari bilan qaradi. Surayyoning yuziga toshgan tangadek qizg'ish dog'lar husnini buza olmagan, u bari bir ko'hlik juvon edi.

– Bunaqa topshiriqni menga faqat siz berishingiz mumkin. Boshqa hech kimning haqqi yo'q.

Surayyoning bu gapi «Faqat siznikiman», degandek tuyulib, Abduzafar aka mamnun bo'ldi:

– Juda to'g'ri. Men jimman. Hayronman Karimga.

– Men boraymi? – dedi Surayyo o'rnidan turib.

– Yo'q, yo'q, o'tirib tur. Qani, ko'raylik-chi, – deb Abduzafar aka qog'ozni o'qishga tutindi. – Xo'sh, kolxozchi-dehqon oilasidan, imtiyozli diplom, o'qituvchi-filolog, harbiy xizmat... Artilleriya... E-ha, bir gaplashuvdik. Bu ham bir yuz yigirma ikki millimetrli gaubitsa otgan ekan. Urushdan qolgan. Zo'r pushka lekin. – Abduzafar aka qo'lini musht qilganicha tirsaklab ko'rsatdi. – Bo'mp etib otilganda stvoli mana bunaqa orqaga borib keladi...

Surayyo Abduzafar akaga to'g'ri qaragan edi, u ko'zini olib qochib darrov qog'ozga tikildi.

– Tak. Oilasiz? Iy-e, nega?

– Nega bo'lardi, uylanmagan.

– I-i-y-y, bechora! – deb yubordi Abduzafar aka. – Ey, sho'rlik, hali uylanmagan ham ekanmi?

Abduzafar akaning gapidan Surayyo allanechuk bo'ldi, bo'ydoqlik degan juda yomon, endi hech ham arimaydigan kasal, shu kasalga uchraganidan ko'zlarini mo'ltiratib, yutoqib-yutoqib chekayotgan A'lam ko'z oldiga kelib, ichi ezilib ketdi.

– Ey, hayot! – dedi Abduzafar aka. – Bu, nima, Yangiyo'ldan qatnaydimi, yo'?

– Yo'q, eski shaharda, ijarada turadi.

– E-e, hali boshga pana joyi ham yo'q, – deb Abduzafar aka yana xafalandi. – Biz ham bo'shatsak, qayoqqa boradi? Oila yo'q, uy yo'q, ishxona ham... Nimaga suyanib kelgan o'zi, a?

– Talant shekilli, – deb bilag'onlik qildi Surayyo. – Kallasini zo'r deyshadi-ku.

– Ey-y, – deb qo'l siltadi Abduzafar aka. – Talantga osh pishirib bo'lsa ekan... Xo'-o'sh, jonim, nima qildik, a? Yuragim ham sanchib ketyapti.

Surayyo Abduzafar akaga suzilib qaradi-da, burnini tortdi. Shayton, mazam yo'q, deyapti-da.

– Nega hammaning yukini siz tortishingiz kerak? Yuragingizga og'ir tushadi-da keyin. Iloji yo'qning iloji yo'q. O'zingizni ham o'ylang. Men hali kirarman.

– Ha, shu bilan qochding-da, a? – dedi Abduzafar aka zo'rg'a iljayib.

– Yo'q, kelaman, – deb Surayyo Abduzafar akaning orqasidagi eshikka qarab qo'ydi. – Hali buyruqlar ham bor. O'zi nima gap, Zafar aka?

Abduzafar aka yolg'ondakam xomuza tortdi.

– Hech gap yo'q, jonim! Yosh kadrlar – bu kelajagimiz. Shtatni ham yosh kadrlar bilan to'ldirib borishimiz kerak. A'lam yana, aytyapsan-ku, talant ekan. Talantga o'zingning ham ko'ngling sust ketyapti. Qaerda turishini ham bilasan. Lekin bu yoqqa kirganda burningni tortasan...

Surayyo qizardi, qizarganiga yuzidagi qizil dog'lari rangiga qo'shilib, chiroyi ochilib ketdi.

– Zafarjon aka!

– Bo'ldi, hazil. Allergiya! – deb ikki qo'lini ko'tardi Abduzafar aka. – Lekin har ehtimolga degan gap ham bor. Karimga o'xshaganlar, vaqtida aytgan edik, direktor quloq solmadi, deb yurmasin. Ma'qulmi?

– Tayyorlab turaman. Lekin Umarov aytgandan hech narsa chiqmaydi, – dedi Surayyo.

– Ko'r-da... Mana, shu paytgacha ham yo'q... Ha, qara-chi, anavi Hakka kelmabdimi.

– Hakkangiz kim?

– Turdiali.

Surayyo piqirlab, shosha-pisha burnini dastro'mol bilan bekitdi.

– Voy, kuldirmang! – dedi. – Kim qo'ydi bu otni, Zafarjon aka! Sizmi? Voy, o'xshaganini!

Abduzafar aka indamay kuldi.

Jim-ku, a? Esidan chiqib ketdimikan? A'lam yo'q, unga ketgan Hakkani ham yer yutdi. A'lam aniq bo'lguncha, so'ramay turgani ham yaxshi. Yo A'lamni uyidan chaqirib oldilarmi ekan? Hech gap emas, Markazkomning haydovchilari yerning tagidan ham g'irra topib keladi. Gulimoh Yulduzovnaning «Keyin gaplashamiz», deb yana indamay qolgani shungadir.

Abduzafar akaning ichi shuvillab ketdi: «Xo'sh, Kamolov uka, qani, nashriyotda nima gaplar? Kitob, broshyuralar vaqtida chiqyapti, reja bajarilyapti, demak, jamoa yaxshi ishlayapti, lekin direktor... direktorning o'zi ham ish qiladimi yo faqat dolonda hushtak chalib yuradimi?» deb so'raydilar, ayniqsa Gulimoh Yulduzovna, qoshlarini chimirib, nozik bo'yinlaridagi Iskandariyadan kelgan chig'anoq shodasini shildiratib; «Voy, ukajon, qo'rqmang. Men borman, to'g'risini aytavering», deydi, A'lam: «Men qo'rqmayman, lekin...» Yo'g'-yo, A'lam unaqa bolaga o'xshamaydi. Ammo o'zi yo'qning ko'zi yo'q, keyin, Gulimoh Yulduzovna non yemaganga o'xshab ingichka ko'ringani bilan, chovuti yomon, gapirtirmay qo'ymaydi.

Abduzafar aka hozir Gulimoh Yulduzovnaning sim qoqishiga mahtal bo'lib, chiqolmay turganigami, dolonda kezishni juda yaxshi ko'rishini tuydi.

Surayyo derazadan ko'rib turgan edi: Abduzafar akaning kulrang «Volga»si pastga kelib to'xtagandan keyin, uning orqa eshigi ochildi-da, Turdiali faqat oyoqlarini tushirib, Irismat aka bilan bir pas gaplashib o'tirdi, orada uch-to'rt kishi bilan bosh irg'ashib salomlashdi, keyin mashinadan chiqib, nashriyotga tomon vazmin odimladi. Ajoyib odam, nima ish qilsa, odamlarning ko'rishi, havasi uyg'onishi, undan ham ko'ra jinday hasadi kelishi kerak.

Surayyo dolondan chaqirib olarman deb bemalol o'tirgan edi, Turdiali zipillab o'tib ketdi, yo'lida tutib, u-bu so'ramoqchi bo'lgan Umarov ham kabinetni eshigini ochganicha qolaverdi.

Qabulxonada Vazira gapirishga og'zini o'nglab ulgurmay, Turdiali Abduzafar akaning huzuriga uchib kirdi.

Nima uchun A'lam ko'mir tashiydi, nega qora ko'mir, ko'mirning qora emasi ham bo'ladimi, keyin, nimaga ko'chaga to'kiladi – Turdialining kalta-kulta gapidan Abduzafar akaning miyasi g'ovlab, biron narsani tushunishi qiyin bo'ldi.

– Ha-a, hamma yog'i qop-qora bo'lib ketgan! Men aytdim, shuni, bozor bir qadam, piyonistadan ko'pi yo'q, yarim shisha vinoga o'lib ham beradi, shularga tashitsang bo'lmaydimi, deb....

Abduzafar aka bir xayoli A'lamni biron maktab-paktabning qozonxonasiga otaliqqa tashib beryapti ekan, deb ham o'yladi.

– Iy-e, hali kelmadi deng?

– Yo'q-da... sudraganim bilan, moshiningizni qop-qora qiladi. O'zim qaytaverdim. Siz qarab qolmang, topshirig'ingizni o'zim qilib qo'yay, deb. O'n marta yaxshi qilib beraman undan.

– Qanaqa topshirig'ingizni? Men sizga nima degan edim?

– Men ham shu gaplarni aytdim. Masala juda qattiq qo'yilgan, kallang ketadi lekin, dedim.

Ko'mirimni tashiyman, keyin boraman, deydi! Hali qishga ikki oy bor, bu yil qattiq bo'ladimi, yo'qmi, xudo biladi, direktorimiz juda xavotirdalar, u kishining jahllarini chiqarma, bir jahllari chiqsa, desam...

– Nega ichingizdan to'qiysiz? – deb Abduzafar aka sal xunob bo'ldi. – Qanaqa masala, kim xavotirda? Miyangizni yeb qo'yganmisiz?!

Turdiali ko'zlarini dum-dumaloq qilib, o'zini tildan qolganga soldi.

Jo'rttaga qo'rqadi! Ana endi qochib cho'qiyveradi.

– Biljir-biljir qilasiz! Gapingizning tuzi bormi? – Abduzafar aka qattiq gapirganini go'yo sezib, sal yumshagandek bo'ldi. – Shataloq otmay, aniq gapiring.

– Kechirasiz,.. Abduzafar aka, haqqattan hovliqib ketibman. Boshqa qaytarilmaydi, – dedi Turdiali ko'zlarini g'iltillatib.

Abduzafar aka qo'lini siltadi:

– Kechirim so'ramang, mayli. Pishiq bo'ling deyman-da. O'sadigan vaqtlaring ham kelyapti. Mana, biz ham pensiya yoshiga boryapmiz, xo'sh, ishni kimlarga qoldiramiz, a?

Turdialining odamga shunaqa qarashi nimaga o'xshaydi, a? Tumshug'ini silab qo'yging keladi.

– Oldinmi, keyinmi, bari bir, shunday bir kun keladi. Turdialiboy! Gap estafeta tayoqchasini kimga berishimizda. Anavi, familiyasi nima edi?

Turdiali hayajondan Abduzafar akaning kimni nazarda tutayotganini anglamay qoldi:

– Kimning, Abduzafar Abdusafarovich?

Sal manfaatning hidi tegsa, «vich»ga o'tib oladi-ya!

– Shu, Mo'rini aytyapman.

Turdiali tumshug'ini cho'zib, ko'zlarini pirpiratdi – unga yana yetib bormadi.

– Do'stingiz... ko'mirchi shoir, – dedi Abduzafar aka.

– E-ha, umi? Topasiz lekin, – Turdiali bir yayradi-da, darrov o'zini bosdi. – Familiyasi Kamolov, Kamolov. Lekin do'st emasmiz, yo'q.

– Iy-e, nega? Yoshlaring teng, bir bo'limda ishlaysizlar, bir xonada o'tirasizlar...

– Tushlikni ham birga qilamiz, – dedi Turdiali shosha-pisha. – Lekin do'st emasmiz, yo'q, yo'q. Ular boshqa, men boshqa, Abduzafar Abdusafarovich.

– Ular... kim?

– Ular boshqa, boshqa davra. Tushunmayman ularni, tushungim ham kelmaydi. Men ustozlarning yo'lidan boraman, Ha, men, mana, sizning etagingizdan ushlaganman. Ursangiz ham, so'ksangiz ham qo'yvormayman.

Abduzafar aka qiziqib qoldi: bundan ancha gaplar chiqadiganga o'xshaydi.

– Ular-chi?

– Qanaqadir tanka, Takabuka... hokku... Men tan olmayman.

Abduzafar aka ajablandi;

– Tankani tan olmaysiz?

Jinnimi bu, tankni ham tan olmay bo'ladimi? Tank bundan so'rab o'tiradimi? Yanchib o'tib ketaveradi! Yo... tavba, tilining tutumi yo'g'-ey.

– Besh satrligi tanka, uch satrligi hokku ekan. «Qor yog'yapti, hamma yoq oppoq, daraxtda qora qarg'a qo'nib turibdi». Shu she'r bo'ldimi? Janrini tanka deydimi, hokkumi, pokkumi, she'r emas-da endi bu.

Abduzafar akaning hafsalasi pir bo'ldi: qanaqadir tortishuv ekan; bular ish qilishning o'rniga nima balo bahslar bilan ovora-ya.

– Bular o'qiydigan adabiyot... yo'q, men chet el shoirlariga qoyil emasman.. Ular o'zlariga shoirdir. A'lamga shuni ko'p aytaman. Qo'y, shu Lorka-porkangni ham deyman. Bizga ulardan foyda yo'q, zarari tegishi mumkin lekin.

– Ha, qarab yurish kerak.

– Shu-da, bizga bari bir yot, begona. Tarbiyaviy ahamiyati ham teskari... Mana, qarang: «Men

nega yozaman – negaki!». Bo'ldi, shu she'r emish! «Men nega yozaman» – sarlavha, «negaki» – she'rning hammasi. She'r emas, oddiy gap-ku bu. A'lamga ham shunaqa narsalarga berilma, deyman. Mana, bayozga ham tragediya tarjimasini kiritdi. Men aytdim. Yevripid buyuk shoir, lekin u antik adabiyot vakili, tragediyasining bugungi kunga nima aloqasi bor, dedim. Yo'q, bari bir, kiritdi...

– Sal g'o'dayganga o'xshaydi lekin...

Turdiali nimadandir hushyor tortdi.

– E-e, o'zi... ichidan unaqa emas. Lekin to'g'ri, tarbiyalash kerak. Ta'sirlarga berilmasa, yaxshi yigit. Mana, yozda TNO «Volga»da yurib qoldi. Voy-bo'-o'!

Bugun angrayadigan kun shekilli.

– A'lamda TNO nima qiladi?

– Shuni aytaman-da. Yozda yubordingiz-ku jurnalistlarning seminariga, atkritka-patkritka chiqarishga dastyorlik qilsin deb?

– Ha, xo'sh?

– Bunga nima qilib moshin tegib qoldi o'zi? Endi, Markazkomda hamma moshinlar shunaqa TNO «Volga»da, a? Bo'lmasa, o'zi invalidlarning pat-patigachalik ham ish qilgani yo'q.

E-e, bu yoshlar-ey! Bularni eshitishning ham bir gashti bor lekin!

– Men o'shanda ham, ey, haqqing yo'q, yoshsan, o'zlari min, desa ham, minma, do'stu dushman bor, dedim. Yo'q! – Turdiali juda kuyib ketdi. – Hatto talabalar shaharchasiga ham TNOda borib yurdi-da.

– Universitet bosmaxonasigami?

– Qayoqda! Ijodiy uchrashuv, deydi, yoshlar bilan. Yaxshi emas, besh kunlik obro' uchun hammani aldash, deb qattiq gapirganman... O'zi yaxshi yigit-u, yosh, adashadi-da. Shu bo'yoqlar ham o'sha vaqti kelgan edimi, Abduzafar aka?

Abduzafar aka hech narsa demay qaradi, bugun bularga bir gap bo'lgan!

– Fotoalbomda rangi ming yil o'chmay turadi shekilli, hididan aytaman, – deb izohladi Turdiali.

Qora ko'mir – ketolmay, kunduzga qolib, qotib qolgan qorong'u tun. Qora ko'mir – qorong'u tun parchalari. Tun bo'laklari. Tun maydalari. Qorong'ulikning tuproq-gardi. Ko'mir – yonadi, qorong'u – qora – yong'u. «Yong'u» degan so'z bormi-yo'qmi? Bo'lsa kerak. «Cholg'u», «ayolg'u», «burg'i», «yoqilg'i», «yonilg'i»... Yo'q, bu yog'iga bachkanalashdik. Lekin nimadir bor.! «Qora», «qorong'u» – bir-biriga bog'liq-ku. Shunday-da. Qorong'u – qora – yong'u, qora yonuvchi, qora nur. Qorong'u qora nur bo'lib tarqaladi. Kunduz kuni ham taralib-tarqalib ketaveradi o'z-o'zicha... Bunaqa o'xshatishlar kurakda turmaydi-yu, lekin qora ko'mir bilan qorong'ulik o'rtasida nimadir bog'lanish bor... Lekin hozir faqat tishining oqligi qolgan bo'lsa kerak.

Ko'mirning qorasi tirmoqlarining tagigacha kirib ketibdi-ya.

Ko'mirni ortgan traktorchiga ham qoyil: yuklaganda ham, ag'darganda ham katta-kattasi ustiga tushib, maydasi tashigandan keyin chiqar ekan. Unga jinday qistirish kerak edi, lekin haligi koraftha odam: «O'tmang! Sizga to'g'ri kelmaydi. O'zlari biladi», desa, xo'p depti. Ag'darma mashina ketgandan keyin Hamid aka degan qo'shni kishi «Karavotning prujina setkasi bilan elab oling», desa, kechagi kayfi tarqalmagan, kinoya qilyapti deb o'ylabdi, shunga ekan-da.

Ammo-lekin qishda shu maydasi joniga ora kirdi. Ko'chib kelgan kuni, qaydan bilibdi, ko'rpaga o'ranib, bir uyquni ursam, tong otadi, ertaga xudo poshsho, deb o'ylagan ekan, uch-to'rt yildan beri odam turmay, zaxlab ketgan uy, yana qishning o'rtasi, yarim oqshom shunaqangi sovgotib uyg'ondiki! O'zi misoli ko'rpaga o'ralgan tirik muz, uy sovuq emas, sovuq o'zidan chiqayotgandek! Hatto hovli ham oy yorug'ida ilib turgandek ko'rindi. Chiqib bir oz yurdi ham. Lekin hovli taraqlagan ekan, chidamadi. Kechasi bilan g'ira-shirada lokini yiltiratib, shiftga tiralgan «kontramarka» pechkaga termilib, uni qanday yoqishni o'ylab, jiyda qoqib chiqdi. Shunchalar istab, shunday zo'r berib

o'yladiki, pechka o'tinsiz ham yonib ketadigandek edi. Sahar dildirab turib hamma yoqni tit-pit qildi, qo'liga yoqqulik narsa ilinmadi. Pechka ham pechka emas, yuhoning o'zi, o'tin-po'tinni yamlamay yutadi, issiq bermaydi, unga faqat ko'mir kor qilar ekan. Ko'mirxona esa ship-shiydon, tagi shibbalangan tep-tekis yer. U nimadir umid bilan shu yerni tirmalab ko'rdi. Qarasa, yarim qarichcha qora tuproq. Ko'mirning tagiga tushgan xokasi shibbalanib bosilaverib, yer bo'lib ketgan ekan. Keyin o'ziga yana bir qoyil qoldi: danakdek, hatto moshdek mayda ko'mirni donalab terib, jindaygina tutantiriq o'tinchaning ustidan qaladi, keyin shu qora tuproqni suvlab bosib, havo yurishi uchun xuddi hammompishdek teshib-teshib qo'ydi. Avval nimjon tutun chiqib, ilashdi, oxiri cho'g'lanib yondi! Xuddi birov o'rgatib turgandek, bo'lmasa, ko'mirning tuprog'ini loy qilib qorsa, yonishi tushiga kiribdimi? Devonaning ishini xudoning o'zi o'nglabdi degani shu bo'lsa kerak-da.

Hozir tashiyotgani huzuri jon-ku. Lekin chelaklab tashigandan keyin, ming g'ayrat qilma, ishning unishi qiyin ekan. Bu odamlar ham jim o'tib ketavermaydi, albatta bir narsa deyishi kerak. Birovi uning o'z narxiga olganiga ishonmay, hozir usti qancha, qor tushgandan keyin qanchaga ko'tarilishini uqtirsa, boshqa birov tashib tugatgandan keyin ko'chani supurib, albatta oqizib yuvishni tayinlaydi. «Bay-bay-bay, buncha qora-ey», deb o'tadilar yana, xuddi o'zlari gaz yoqadigandek. Har xil odam-da, lekin aksariyati ko'mirni A'lamning o'zi kiritayotganiga ajabsinadi. Doim po'ringina yuradigan yigitning qo'lini ko'mirga urishi yarashmagan bir ish, qanaqadir maqtancholikka ham o'xshar edi. «Mana, ko'rib qo'yinglar, men qanaqa kamtarman. Ko'mirni ham o'zim tashiyveraman», deyayotgandek. Shokir posadkachi hatto: «Odamlar hurmat qilgandan keyin odamlarning ham hurmatini qilish kerak, shoir. Bizlar sizni, vaqtini olmaylik deb, choyxonaga chaqirmaymiz-u, siz bo'lsangiz...», dedi. Odam o'zining ko'mirini o'zi tashib olsa, bularga hurmatsizlik bo'lar emish.

Shunday lekin, choyxonadan vaqti-vaqti bilan kosada ustiga non bostirilgan osh, qozon kabob, ba'zan dimlama chiqib turadi. A'lamning o'zi choyxonaga chiqmaydi hisob, chunki qovushimi yo'q; shaxmatga oshno emas, qartadan uzoq, boshqa narsalarning ko'chasidan o'tmagan. Choyxonadagilarga ham shu ma'qul, undan nima ulfat chiqardi, she'r o'qitmaysan-ku. Choyxona bozorga yaqin, bozorni desa ham bo'ladi, har xil odam bor, aralashib nima zaril, o'tirib maqolasimi, she'rinimi yozaversin. O'zi umuman bozorning barakoti butun atrofiga yoyiladi, mana, shu mahallada ham tirikchilikning yo'q kasbining o'zi yo'q, endi yozuvchi ham shu yerdan o'sib chiqsa, bu ham bir fayz-da.

Lekin o'zi g'alatiroq, bir unday, bir bunday. Bugun ko'mir tashiyapti. Yozda esa besh-o'n kun qora «Volga»da ham yurib qoldi. Orqasi pardali, o'rindiqlariga ham oq tortilgan, haydovchisi ham A'lamga bir yarimta keladigan jiddiy odam. O'zi bir bosh, bir quloq, ijarada turadi, yana ko'chaning og'zida bu kishimga «Volga» muntazir, tomosha, zerikmaysan.

TNO «Volga» minish boshida juda yoqdi. Odam kirasini beradigan taksiga o'tirganda qancha havo oladi-yu, o'ziga birkirilgan mashinadan ta'sirlanmaydimi! A'lam birinchi kuni tushgachayoq ishlarni bitirib tashladi, Markazkomdan bosmaxonaga bordi, uyushmaga kirdi, yana bosmaxonaga qaytdi, nashriyotiga keldi, hali tushlikka vaqt bor edi, Turdiali bilan bir oz laqillashdi ham. Gap orasida og'zining bir chekkasidan mashinada kelgani chiqib ketgan edi, Turdiali irg'ib turib, ko'rib ham keldi. Yo'lda, dolonda bir-ikki-odamga sal boshqacharoq shipshigan shekilli, A'lam buni hamkasblarning boshqacha so'rashishlari, tagdor gaplaridan o'sha yoqqa ishga o'tayotgani haqida mish-mishga aylanganini albatta keyinroq bildi. «Besh kunlik xalifaligini» A'lamning o'zi kulgiga olgan bo'lsa-da, Turdiali ancha cho'kdi, «Shunday katta odam sizning xizimatingizda-da, – dedi mung'ayib. – Olib boradi, olib keladi. E-e, qoyil! Endi biz bilan ovqatlanmaysiz-da, a? Markazkomning ovqati yangi so'yilgan go'shtdan, ham arzon. Hech gap emas, shunaqasi o'sib ketaversangiz. Mayli, bizga ham sizning yo'lingizni bersin». «To'g'ri, – deb kuldi A'lam, – yangi so'yilgan go'shtdan odam o'sadi lekin». U bunaqa narsalarni xayoliga ham keltirmagan edi, lekin boshqa tomondan boshi qotdi: endi buyog'iga mashinani nima qilsa? Bugunga ish tamom, ertaga ham yo'q hisobi, bosmaxonaga borsa ham, bormasa ham bo'ladi, boshqa kunlari ham shunday. Qiziq lekin: ixtiyorida mashina, haydovchisi bilan, faqat

mashinada boradigan joy, qiladigan ish yo'q.

O'zi ish ko'p emas, nashriyot bosmaxonalar Markazkomdan bir qadam, yigit odamning tovonini yeyilib qolmaydi. Qaytangga, mashinasiz yaxshi edi, erkin, Markazkomga deb quyovni sursa ham, botinib so'raydigan mard yo'q. Mashina bo'lsa, to'qqizdan qo'ngayib turadi. Haydovchisi Ergash aka otasi tengi odam, kuttirish noqulay. Keyin ham shunday savlatli mashina nimaga ovora deb biron surishtirmaydi-yu, lekin, bari bir, ko'ngil alag'da, mashinalik ish qilish kerakdek. Kechqurun ham oltini kutib o'tirishni aytmaydismi? E xullas, mashina bironvga havas qilsang, yaxshi-yu, lekin o'zingga... oyoqqa tushovdek bo'lib, bemalolchilik yo'qolib qolar ekan.

Hammasiga Shamsiddin Solihboev sababchi, shu odamning g'alati fe'li bo'lmaganda, A'lam ham bu boshog'riqqa uchramas edi. O'zi shunaqa qo'rqqoqmi yo'rttaga qiladimi, nimani so'ramang, yo'q, deydi, qirq yildan beri matbuotning nonini yeb kelayotgani, portfeli bitta ekanini pesh qilib, oyoq tirab turib oladi. «Eson-omon pensiyaga yetib olishim kerak», deydi.

Brejnevning nutqi ingliz, nemis tillarida broshyura bo'lib chiqar ekan, A'lam bosmaxonadan korrekturalarni olib, «Vneshtorgizdat»ga berishi, orada jurnalistlar uyushmasiga, shunda ham albatta uning raisi Shamsiddin Solihboevga o'zi olib kirib, tasdiqlatishi kerak edi. U Solihboevni shunda ko'rdi. Solihboev uni ancha xush qabul qildi, korrekturalarni ehtirom bilan qo'lga oldi-da, birdan ko'zi olayib, yuzi ko'karib qoldi. A'lam bu odamdagi bir nafasda bo'lgan o'zgarishdan oshqozon-poshqozoni tutib qoldimi, deb cho'chib ketdi.

– Qani, qani... Ilichlari? – deb Solihboev galdiraklab tilga kirdi.

A'lam tushunmadi.

– Kim qani? Qanaqa Ilichlari?

– Ilichlari!? Ilichlari qani, deyaqman?! – Nihoyat nafas yo'llari ochildi shekilli, Solihboev baqirib yubordi. – Kim olib tashladi!? Kim qildi bu pravakatsiyani?! Sizmi? Nega kulasiz?

A'lam ichidan kelgan shayton kulgini zo'rg'a bosdi, lekin yuziga iljayish qalqqan shekilli, Solihboev unga odamyovvoyini ko'rgandek o'qrayib qarab qoldi.

– Birinchidan men qilganim yo'q. Ikkinchidan, bu tillarda nisba berilmaydi. Uchinchidan, menga baqirmang.

– Nega baqirmayman? Ilichlarini olib tashlaysizlar-u, baqirmaymanmi?

– Aytyapman-ku sizga, ularning tilida Ilich-pilich bo'lmaydi, deb. Leonid Brejnev, bo'ldi, tamom!

Solihboev bunaqa behurmatlikni kutmagan edi, battar tutaqqanini boshini orqaga tashlab, puflab bildirdi, lekin birdan past ham tushdi.

– Bilgan odamlar qilgandir, axir, – deb murosa qildi A'lam. – Har bir tilning o'z tartib-qoidasi bor.

– Seminar chet elda emas, o'zimizda, O'zbekistonda, Toshkentda bo'lyapti! Foyaviy dushmanlarning tartib-qoidasi bilan necha pullik ishimiz bor? – dedi Solihboev sal yumshagan bo'lib.

– Biz o'rtoq Brejnevning hurmatlarini joyiga qo'yib, Leonid Ilich deb aytishimiz kerak. Keyin, uka, bunaqa pichinglarni qilmang.

A'lam hayron bo'ldi.

– Qanaqa piching?

– Anavi... Ilich-pilich, dedingiz. Uka, men bir oqko'ngil odamman, otangiz qatori. Sinib qolmang... Chet tili bo'lgandan keyin, do'st emas-da. Ularning ko'ngliga qarab, Ilichlarini olib tashlash – xato. Buni yuqori instantsiyada gaplashamiz.

Keyingi mashmasha yana shu korrekturalar ustida bo'ldi. Kontsertga taklifnoma bilan dasturidagi imlo xatolari asl matnda ham o'tib ketgan ekan, A'lam to'g'rilab chiqdi, ikki joyda beso'naqay jumlani tahrir qildi. Keyin, albatta, bularni ham Solihboevga tasdiqqa olib kirdi. O'sha ahvol qaytaladi: Solihboev ko'kardi, sakrab tushdi, nafas yo'llari ochilgandan keyin yana baqirdi:

– O'v, uka, sizni mening jonimni olgani yuborishganmi? Nima haqqingiz bor Markazkom tasdiqlagan matnni o'zgartirishga?! Qaerda tug'ilgansiz o'zi, a?

Bu gal A'lamning ham jahli chiqib ketdi:

– E-e, baqirmang menga-e! Oddiy imlo xatosini ham Markazkom tasdiqlaydimi? Ko'zmi, po'stakning yirtig'imi, deyishmaydimi?

Solihboev stoli tortmasidan matnlarni olib, muhrini ko'rsatdi, keyin boshiga ko'tarib silkitdi:

– Rasmiy tarjima! O'zTAG qilgan! O'lingiz kelyaptimi? Nega aralashasiz?

– Nega aralashmay? «Qahramon Kenjaev» «K. Kenjaev», «Qaro ko'zim» kuyi «Qora ko'zim» deb yozilgan. «Saqli navo» «Saqli navo» bo'lishi kerak. «O'roq» ham, «Yo'ldosh» ham ham qisqartmada «U» «Yu» bo'lib ketgan, «Chutboev» emas, «Cho'tboev».

Solihboev qo'lidagi qog'ozlarni A'lamning burniga ishqalagudek bo'ldi:

– «Chitboev» bo'lmaydimi?! O'zlari javob beradi! Mana! Muhrini ko'ryapsizmi? Gursillatib urgan! Bitta ham harfini o'zgartirishga haqqimiz yo'q.

– Bu o'zgartirish emas, axir, Shamsiddin aka! – dedi A'lam xunobi oshib. – Oddiy tuzatish.

– O'zlari buzgan, o'zlari tuzatadi! Mening qo'limdagi matn tasdiq qilingan, bir harfiga ham teginmaysiz! Portfelim bitta!

– Kim o'zlari? – deb so'radi A'lam.

Solihboev qo'lini tepaga nuqidi:

– Markazkom!

– Kim? Gulimoh opami?

Solihboev A'lamga sherning mo'ylovini tortqilayotgan bolani ko'rayotgandek achchiq hayrat bilan qaradi.

– Hali sizga opa bo'ldimi? O'rtoq Islombekova-ya?!

A'lam indamay, stol ustidagi telefonga cho'zilgan edi, Solihboev apparatni chaqqon tortib qoldi.

– Nima qilmoqchisiz? – dedi boshini qiyshaytirib.

– So'rayman.

– Shu yerdan-a? – Solihboev telefonni ikki qo'li bilan ushlab oldi. – Uka, sizni tushunmayapman.

To'g'ri gaplashmoqchimisiz?

– Ha.

– Heh-he, qoyil! Yana qaerda tug'ilgansiz desam, achchig'ingiz keladi. Men, jurnalistlar uyushmasining raisi, juda yonib ketmasa Gulimoh Yulduzovnaning tinchini buzolmayman. Haddim yo'q! Siz yosh bola, shunday telefonni ko'tarib, bemalol gaplashaverasiz-a? Kimsiz o'zi?

– Odam, – deb ajablendi A'lam.

Namuncha bu odam vahima qiladi? Gulimoh opa ham hech qo'rqinchli emas, yaxshi bir ayol, odamga mehribon. «Uka, bu yerga yengil kelmang, – dedi A'lamni birinchi qabul qilgan kuni. – Kostyum kiyib oling.» A'lam: «Galstuk ham taqaymi, – dedi-yu lekin opaning to'g'ri tikilgan ko'zlariga to'qnash kelib, olifta gapidan o'zi o'ng'aysizandi. – Shu saratonda-ya. Odam bo'g'ilib ketadi-ku». Opa undan ko'zini olib, horg'in izoh berdi. «Ha, tashqarida saraton. Bu yerda havo yigigma-yigirma besh gradus past. Qattiq shamollash mumkin.» Opaning nigohlari shunaqa tiniq ediki, uning oldida ortiqcha gapirishning o'zi ortiqcha, lekin muomalasida qandaydir erkinlik bor edi. A'lam ukasinib hazillashdi: «Qancha yuqori bo'lsa, havosi shuncha past bo'ladi. Bu sovuqda qanday o'tirasiz?», dedi. Opa yana kulimsirab qaradi-da, qoshlarini chimirdi, «Ijod qilmang», dedi. A'lam bu gapni ancha keyin tushundi, opa ruscha o'qigan, ruscha fikrlar, shundan o'zbekcha shevasi juda shirin edi. «Ijod qilmang» degani «Haddingizdan oshmang», «O'zingizcha to'qimang» degani ekan. Suhbat avjida A'lamning otashinligi me'yorida sal oshsa, opa: «Bo'ldi, ijod qilmang», deb to'xtatib qo'yar, lekin qoshlarini chiroyli chimirishidan shunday qilganiga afsuslanayotgani bilinib turar edi.

A'lam Solihboevning oldidan chiqdi-da, bari bir, uning qabulxonasidan Gulimoh opasiga sim qoqdi, opa tez yetib kelishni so'radi. A'lam borganda opa shay turgan ekan, korrekturalarga bir qur ko'z yugurtirdi-da, shartta imzo chekdi. Hammasini shap-shup taxlab, A'lamga uzatdi.

– Bosmaxonaga! Bo'ldi, hech kimga ko'rsatib yurmang! Shuncha odamdan o'tib ketavergan ekan-da. Lekin «qaro»sini men «qora» qilgan edim. Qayoqdan bilay, ruscha o'qiganman-da. Bundan keyin

hammasini o'zingiz ko'rib, o'zingiz javob berasiz. Ishonaman. Tasdiqqa – menga. Tushunarlimi? Ertadan sizga mashina chiqadi. Piyoda yurmaysiz. Bu yog'iga endi ish operativ ketadi. Ha? Solihboev yana tomosha ko'rsatdimi? Endi ko'rsatmaydi. To'g'ri men bilan ishlaysiz. Ishlamayman degan gap yo'q. Oldinda hayot bor.

Shu bilan A'lam TNO minib qoldi, ish ham yurishdi, Solihboev «jangi»dan ham, ungacha bo'ladigan imzo to'plashlardan ham qutuldi. Yo'q esa, seminarga chiqariladigan o'ttiz sakkizta narsaga Solihboevga qo'l qo'ydirguncha, pensiyaga u emas, o'zi, shunda ham invalidlikka tayyor bo'lib qolishi hech gap emas edi. A'lam qolgan ishlarni o'ynab bajardi, qiynalmagani, azob chekmagani uchun, keyin nimalar qilgani esidan ham chiqib ketdi. Faqat har zamonda TNO «Volga» minganini sog'inib qoladi, xolos, mashina ko'chma hibsonadek bo'lsa-da, har qalay, martaba edi-da.

Belkurakni xuddi jonli bir narsa pastga siltab tortgandek tuyulib, zalvori birdan qo'lga tushdi. A'lamning ko'ngli g'alati bo'lib ketdi. Belkurakni azot ko'tarish ancha og'ir edi, shuning uchun tortib chiqardi. Shapaloqdan kattaroq, to'rt enlidan qalin bir narsa yilt-yilt ko'zga tovlandi. A'lam uni qo'lga oldi, rostdan ham xiyla vazmin, nimadir katta palaxsa jinsning singani, yaxlit bo'lak. Nima bo'lsa? Kumushmikin? Yombi kumush! Xudo A'lamjonni ol qulim deb siylab yuborgan bo'lsa! Qora ko'mirning ichida uch-to'rt kilolik kumush yombi egasini kutib yotsa-ya!

A'lam bo'lakni kafti bilan artirdi, pufladi, ichida o'zidan kulgan bo'lsa-da, erinmay ishqalab yuvdi, bo'lak oynaday yaltillab, ochilib ketdi. Ha, bu hech shubhasiz, nimadir og'ir metall edi, O'zi kumush og'ir bo'ladimi, yo'qmi? A'lam kumushning ham uncha farqiga bormaydi. Bezak kumush tangani muzeyda oyna tagida ko'rgan, do'konlarda kumush qoshiqqa ko'zi tushgandir, qizlarning kumush taqinchoqlariga uncha ham e'tibor bermaydi, har holda kumush deb bilganlari bunaqa tovlanmaydi shekilli. Yana ham kim biladi, kumush yombi ko'mirning ichida yotavermasa kerak. Uyiga ko'mir tushirganlar uch-to'rt kilolab topib olaversa, kumushning kumushligi qoladimi? Balki uning yombisi hech narsa turmas. Lekin charaqlaydi, nihoyatda qattiq, singan joyining qirralari qo'lga olmosdek o'tkir botadi.

Dolonning ikki tomonidagi qator-qator xonalardagilarning hammasi Abduzafar akaning odamlari, Abduzafar aka bularning barini o'tirg'izib-turg'izadi, hatto yoshi o'zidan kattalariga ham u ota maqomida. Hech mubolag'asi yo'q, Abduzafar aka kulsa, bular ham kuladi, xonalardan hazil-huzul eshitiladi, buxgalteriya bilan reja bo'limining yonma-yon xonalaridan, Muxlisa bilan Elmira chatoq-da, balandroq qiyqiriqlar ham chiqib qoladi, Abduzafar aka qovoq solsa... jimlik hukm suradi, yo'q, jimlik emas, chitir-shitir qilib mashinka tovushi bostirib kelaveradi.

Ha, birdek chitir-shitir tovush, hamma yoqqa birdek singib ketgan bo'yoq isi, o'zingga olsang, e'tiborda tutsang – ikkalasi ham bor, sira qutulmaysan, parvo qilmasang – yo'q, payqamaysan ham.

Abduzafar aka qabulxonaga qaytib kirib, Vaziraga Umarovni chaqirishni buyurdi-da, kabinetiga o'tib ketdi.

Ko'p o'tmay Umarov pishillab yetib keldi-da, kabinet eshigi tutqichini ushlab, Vaziraga «Qandaylar?», deb im qoqdi, Vazira indamay burnini jiyirdi. Umarovning yuziga Vaziraning «Karim akamning jonini olib qo'ygansiz-da, Abduzafar aka», deb aytishiga qaratilgan yasama xavotir yoyildi.

– Chaqirgan ekansiz, Abduzafar aka?

Abduzafar aka og'ir nazar bilan Umarovning oyog'idan boshlab yuzigacha sekin qarab chiqdi, keyin ko'ziga ko'zini qadab indamay turaverdi. Umarov uning nigohiga dosh berolmay, ko'zini olib qochdi, deraza tomonda bir narsani ko'rgan bo'ldi, devorda ming marta ko'rgan dohiy portretiga alangladi, oxiri stol ustidagi juda xira dog'ga tikilganicha, bu yerga tasodifan kirib qolgan g'irt notanish, yetti yot begona bir gunohkorga aylanib qotdi.

– Qani boyagi... ko'tarib yurgan qog'ozingiz? – dedi nihoyat Abduzafar aka.

Umarov shosha-pisha qo'yin cho'ntagiga qo'l soldi.

– Mana! Mana, olib yuribman!

To'rt buklangan ikki varaq qog'oz qandaydir irkit, sarg'aygan, uch-to'rt joyida yog' dog'i ham edi. Abduzafar aka ijirg'andi. Bo'yoq hidi shu qog'ozdan ham biliqsib kelayotgandek bo'ldi.

– Nima bu?

– Boya aytdim-ku, s'ezdga bag'ishlangan sonni shunaqa siyosiy to'g'ri kelmaydigan...

– Men nima bu deb so'rayapman! Yigirma uchta ko'zyosh, oltita qish, to'qqizta ko'zyosh... Nima bu sanoq, Karim? Maqsad qani, maqsad?

– Maqsadi shu, zamonamizni qoralash...

– Yo'q, sizning maqsadingizni so'rayapman?

– Ularning maqsadini ochganman-da, Abduzafar Abdusafarovich!

– Ha, yozing-da shuni, Karim. Bu qog'ozingizdan odam nimani tushunadi? Uchta muxammas, bitta eshak to'g'risida hajviya deb, so'roq qo'ygansiz? Nima u?

– Aytdim-ku, Navvoyi, Lutpi g'azallariga muxammaslar...

– E-e, tilingizga tersak chiqqanmi? Navvoyi, Lutpi! To'g'rilab ayting-ey! Axir, raykomda insruktor emas, nashriyotda bosh muharrir o'rinbosarisiz!

– Lekin yozganda bexato yozaman, Abduzafar Abdusafarovich! Navvoyida bitta «ve». Lutpi fabrikadagi «fe» bilan. Yozib ko'rsataymi?

– Menga ko'rsatmang, tilingizni to'g'rilang. – Abduzafar aka qo'lini qog'ozga paxsa qildi. – Qarang, bu nima latta? Somsa yeb og'zingizni artganmisiz? Yo ketingizning tagiga qo'yib o'tirasizmi? Na boshi bor, na oxiri. Rasmiy qilib yozilmaydimi? Falonchi falonchiga, falonchi falonchidan, falon masala yuzasidan ariza yo raport, yo ma'lumotnoma, yo talabnoma... Oltita qish, to'qqizta ko'zyosh, bitta tragediya emish! Bitta esh-shak!

Umarovning og'zi kappa-kappa ochilib, nima deyishini bilmay baqrayib qoldi. Abduzafar aka sal insof qildi:

– Buni, Karimjon, bir hujjat holiga keltiring-da. Mening nomimga yozing. Bayoz qo'lyozmasi haqida e'tirozlaringizni, kimlarga, qanaqa tartibda yetkazganingizni, qanday munosabatda bo'lishganini. Keyin bosilib chiqqan bayozni oling-da, solishtiring, e'tirozlaringiz hisobga olinganmi, yo'qmi, olingan bo'lsa – nimaga, olinmagan bo'lsa – nimaga? Hammasini batafsil yozib, siyosiy xatolarga yo'l qo'yilgan joylarni, misollari bilan aniq ko'rsatib, Vaziradan ro'yxatdan o'tkazib, menga topshiring. Tushgacha tayyor bo'lsin. Ma'qulmi? Yo yana o'rgataymi? Vaziraga aytib keting, kadrlarni chaqirsin.

Umarov ancha ruhlanib, pishqirgandek chiqib ketdi.

– Hm, xonim, nima bilan bandlar? – dedi Abduzafar aka qovog'ini uyib. – Ish ham qilyaptilarmi?

Surayyo birdan hushyor tortib, Abduzafar akaga cho'chinqirab qaradi.

Abduzafar aka iyagini qoqqi:

– Hm?

Surayyo indamay ko'zlarini mo'ltiratib, Abduzafar akaning gapi qayoqqa burilishini kutdi.

– Bugun nechta xodim ishda? Nechtasi kechikib keldi?

– Borlarning hammasi ishda, – dedi Surayyo o'smoqchilab. – Abduzafar aka? Biron narsadan xafa qildimmi?

– Yo'q, – dedi Abduzafar aka. – Oddiy tartib bo'yicha ishni so'rayapman. Aniq nechta xodim ishda, shundan nechta kechikib keldi, kechikkanlar yo kelmay qolganlar rasmiylashtirilganmi? Bo'lsa, qani hujjat? Shularni so'rayapman. Xafa bo'lish-bo'lmaslikning nima aloqasi bor?

Surayyoning xo'rliigi keldi:

– Bir og'iz ham indaganingiz yo'q edi-ku?

– Iy-e, indab turishim kerakmi? Kadrlar bo'limi kundalik ishini o'zi bilib qilavermaydimi? Ana shu-da! Odamlar xohlagan payti keladi, xohlagan payti ketadi, hisobga olinmaydi, kun bo'yi yo'q bo'lishi ham mumkin, men so'ramasam, hech kimning ishi yo'q. Hammaga o'zining tinchligi kerak.

– Abduzafar aka, ayb menda, – dedi Surayyo ko'zlari yoshga to'lib. – Ertaga ertalabdan o'tirib,

hammasini yozib boraman. Kechiring.

– Hozir! – dedi Abduzafar aka keskin ohangda. – Hozir profsoyuz Sojidani ol-da, xonama-xona tekshirib chiq: kim qaerda, nima ish qilyapti. Yarim soatdan keyin hisobot, mana, stolimda tursin. Mehnat intizomiga umuman qaramay qo'ydinglar. Qattiq chora ko'rmasam bo'lmaydi shekilli.

Surayyo kirganidan beri biron marta ham aksirmadi, burnini bir-ikki chimdiladi, xolos. Chiqib ketayotib, nimadir ilinjda Abduzafar akaga javdiragan edi. Abduzafar aka derazaga qarab oldi.

Abduzafar aka shu o'tirgan joyida, indamay, hech kimga hech narsa demay ham butun nashriyotni o'z hukmiga olganini jisman his qildi. Hozir jamoa bir qalqib tushadi, u-bu ish bilan chiqqanlar shoshilinch qaytadi, hamma o'z joyini egallab, ishga yopishadi, hangomalar bosiladi, hatto A'lamning bugun kelmay, ijarasiga ko'mir tashib yotgani haqida gap-so'zlar ham o'chib, dolon huvillaydi-da, mashinkalarning chitir-chitir, shitir-shitirlab toshib chiqayotgan tovushigina qoladi. Surayyo bilan miqtiligidan boshi orqaga ketib, og'zi doim yarim ochiq yuradigan Sojida Abduzafar akaning irodasini xonama-xona bir-bir o'tkazib boraveradi.

Bu maromni bir kuch – Abduzafar akaning o'zi buza oladi, Abduzafar akaning maromini esa qizil telefon qutichasi. Jiring etsa, olam guliston! Yo urdi xudo!

Tushlikdan bironta odam kechikmadi. Aksincha, lag'moni yo somsasini yigirma daqiqa yo yarim soat oldin yeb olib, keyin ko'cha yoqasidagi yo'lka bo'ylab har kungi sayru suhbatini kanda qilmaydiganlar ham ertaroq qaytdi. Aksariyat xonalarning eshigi ochiq, A'lamni, to'g'rirog'i, A'lam kelsa, nima bo'lishini kutib hammaning qulog'i ding. Tinch, hayot bir maromda kechadigan ishxonalarda odamlarning ko'ngli doim yangi gapga, hatto yomonlikka bo'lsa-da, nimadir o'zgarishga tashna turadi. A'lam kelsa ham bu dolonda favqulodda bir tomosha qo'yiladigandek, hamma unga allanechik bosiq intizor edi.

Mana, A'lam ham kirib keldi. Lekin hamishagidek po'ringina, tartibli kiyingan, sira ko'mir tashiganga o'xshamaydi. Go'yo tushgacha ham shu yerda ishlab, keyin tushlikka borgan, ovqatlanib, yaxshilab dam olib, yana ko'ngilxotirjam ishga kelgan, go'yo hech gap o'tmagan, go'yo hech narsadan xabari yo'q. Doimgidek boshini silkib salom berib qo'yadi. Yana indamay boshini qimirlatadi, so'rashgani shu. Xudoyim odamni ham yaratgan-da lekin! Balki kavushi to'g'rilanayotganidan rostdan ham g'ofildir. Bu yoqda Surayyoning Sojida bilan tentagi chiqib yotibdi. Axir, bir joyda ishlab, birga qaymoqlashib o'tiradigan odamlarni qachon ishga keldingu hozir nima qilyapsan, deb savolga tutib chiqishning o'zi bo'ladimi?

– A'lam!

Surayyo chinqirib yuborganini o'zi bilmay qoldi. Unga Sojida ham jo'r bo'lib do'rilladi, lekin uning tovushi vazmin, o'z qadrini biladigan pisandali edi:

– Kamolov! Bu yoqqa kiring!

A'lam kadrlar bo'limining eshigi oldida taqqa to'xtadi, u albatta Turdialining dolonda betoqat qarab turishini yo Vaziraning chopib kelishini kutgan, lekin o'zining Surayyo bilan Sojida ikkalasiga ham birdan kerak bo'lib qolishini o'ylamagan, buning uncha xosiyati ham yo'q edi.

– Salom berdik, go'zal xonimlar! Kasaba bekasi, shtatlar malikasi, yaxshimisizlar? – dedi u sho'xchan ohangda.

Surayyo «Hm» deb boshini silkidiyu Sojidaga qaradi, Sojidaning og'zi yarim ochilib, ko'zlari shiftga bir boqdi, keyin ikkalasi ham baravar A'lamga yuz burdi. Ha, hech ham hazilning vaqti emas edi.

– Qaerda yuribsiz? – deb sachradi Surayyo.

Surayyoning alami tagida erkalikning ham achchiqchasi bor edi, Sojida unga yelkasi bilan burilib qarab qo'ydi.

– Sizni deb hamma yoqni ostin-ustun qilib yubordik-ku. Ertalab kelib aytib, keyin borib qilavermaysizmi ishingizni?

Nimaga kelmagani, nima qilgani – hammasi bularga ma'lum, Turdiali aytmay qo'ymagan, endi A'lam nima ham desin?

– Surayyo, mening ishim zaril. Asosiy gapni aytaylik, – dedi Sojida. – Xo'sh, ukam, hammayoq tekshir-tekshir, mehnat intizomini nazorat qilib chiqdik. Faqat siz yo'q ekansiz. Bitta tushuntirish xati yozasiz. Nimaga yarim kun ishga kelmadingiz, sababi uzrlimi, uzrsizmi – ko'rsating.

– Ko'mir tashish uzrga kiradimi, uzrsizgami? – deb so'radi A'lam.

– Men sizning hazilkashingiz emasman, – dedi Sojida. – E-e, nima bo'lgan bo'lsa, shuni yozing. O'zingizni go'llikka solmang. O'n besh daqiqa uzrsiz kechikkan odamni bo'shatishga haqqimiz bor. Tushundingizmi?

A'lam angraydi, uning jim turishini Sojida o'zicha tushunib, gapini unga yozdiradigan arizaga to'g'riladi, Surayyoning qora ko'zlari mungli chaqnadi, u bir Sojidaga, bir A'lamga qarab, bir narsa demoqchi bo'ldi, ammo Sojida gal bermadi.

– Ijarada yashayman, o'z uyim yo'q, gaz yo'q, o'tin yo'q, tez-tez kasal bo'laman, shuning uchun ko'mir tushirgan edim, shuni tashiyman deb kechikib qoldim. Bu yerda qarovchim yo'q, moddiy ahvolim juda og'ir, deb sal o'zingizdan ham qo'shing-da. Sizlar shoir-ku, o'qigan odamning sal rahmi keladigan bo'lsin... Oilaviy ahvolimni, sharoitim qiyinligini inobatga olib, gunohimdan o'tishingizni so'rayman va o'zim ham o'z navbatida bu xatoni takrorlamaslikka so'z beraman, deb o'z qo'lingizni qo'ying.

– Rostdanmi? – dedi A'lam ajablanib. – Ko'mir tashidim deb yozamanmi?

– Ha, – dedi Sojida. – Ko'mir tashigandan keyin ko'mir tashidim deb yozadi-da.

Surayyo A'lamga bir qarab oldi, uning nigohini tuta olmagach, Sojidaga o'girildi.

A'lam jilmaygan edi, peshonasi tirishib ketdi.

– Mahallani bulg'ab yotmasin, o'zim joylab qo'yaman deb... Endi shuni yozib yurmay. Boshqa yo'li yo'qmi?

– Voy, qiziq ekansiz-ku, Kamolov? Ko'mirni sizga men tashittirdimmi yo mening uyimga tashidingizmi? – Sojida burnini ko'tarib gapirsa, xuddi orqaga ag'nab ketayotgandek ko'rinar edi.

Surayyo ularni murosaga chorladi:

– Kasal edim deb yoza qolsin.

– Gapini qarang, ko'mir tashiysizmi, tezakmi, vaqtida keling-da ishga, keyin gapiring.

Surayyo A'lamning qo'liga turtdi.

– A'lamjon! Siz kelguncha Sojida opa ikkalamiz bittadan A'lam tug'ib o'tiribmiz. Nima bo'ldi o'zi, deb bunday so'rang!

– Yo tavba! Turdiali aytib kelgani borsa, ko'mir tashiyotgan ekan-siz-ku! Yana nimaga tonasiz?

– Men... tonyapti deganingiz nimasi? Ko'mir tashish boshqa, ko'mir tashigani uchun rahm shafqat tilash boshqa.

– Voy! – Sojidaning boshi yana orqaga ketib, ko'zi shiftga qadaldi, o'sha yoqdan yana A'lamga qaytdi. – Men noto'g'ri gapirdimmi? Qaytangga sizga yaxshilik qilay deb, o'rgatib o'tiribman-ku. Mana, Surayyo aytsin. Surayyo, bunga ayting.

A'lam Surayyoga ma'nisiz qaradi.

– A'lamjon! Gapga quloq soling, – dedi Surayyo, lekin endi nima gap aytishni bilmadi.

– Ma'qul, – dedi A'lam. – Ikkovlaringga bitta tushuntirish xati yetar, a?

Sojida yon berib to'rsaydi, «Buning gapiga ishonaveraymi?», degan ma'noda Surayyoga qaradi, Surayyoning rangi o'chdi.

– A'lamjon!

A'lam burilib chiqib ketdi.

– Qo'rs! – dedi Surayyo.

Uning bu gapi A'lamga emas, Sojidaning eshitishiga qaratilgan edi.

– Siz og'zidan ushlang, o'zi yozaman, dedimi – bo'ldi, – dedi Sojida jonlanib – Tavba! Qizlarni ham xudo urib ketganmi? Yoz bo'yi bir sakkiztasi shuning oldiga qatnadi-ya! Tuppa-tuzuk, andazasi kelishgan, o'rta qo'lday, erga tegsa bir ro'zg'orni obod qiladigan qizlar-a, shuning nimasiga uchadilar? Odamlilik siyohi yo'q-ku.

– Anuv... yoshlarning yozganlarini chiqarishdi-ku, – dedi Surayyo. – Shuni A'lam chiqardi-da. O'sha qizlar she'r olib kelar edi.

Sojida bir gapni boshlasa to uni tugatmagunicha boshqa gap, ayniqsa birovning gapi qulog'iga kirmas edi.

– Bu deng, odammisan deb qog'ozdan boshini ko'tarmaydi. Qiz bechoralar esa qatorlashib unga termilib o'tiradi! Munday qilib bir qarasa bormi, haligi qizginalar o'tirgan joyidan irg'ib turadi. Voy, ularning jonini olib qo'yganini! Yomon ko'raman shunaqa mirquruqlarni! O'sha sho'rliklar ham buning kimligini bilib qoldilar shekilli, qadamlarini uzib ketishdi.

– Kitob, ha, bayozlari chiqdi-ku, bo'ldi, nima qiladi kelib, – dedi Surayyo.

– Ey-y, yaxshi yigit bo'lsa, qizlar keyin ham kelaveradi. Hozirgi zamonning qizlari yomon, uyi yo'q, joyi yo'qni o'zining uyiga olib borib, novcha qiladimi? E-e, bo'пти, yozganini oling, yana bir bahona topmasidan. Keyin gaplashamiz. Ishim ko'p.

Xonaning ikki derazasi ham ichkari hovliga qaragani uchun bo'yoq hidi ham yopiq oynalardan yorug'lik bilan birga sizib kiradigandek tuyular edi.

Turdiali A'lamni ko'rishi bilan qapchib turdi.

– Keling-da-e!

– Vas sprashival Karim Sagdullaevich. Pro kakogo-to biyaza, – dedi Irina.

– Chevo? – deb tajang bo'ldi A'lam.

– Bayoz, bayoz, – deb gapga qo'shildi Xosiyat. – Sizga bir nimalar yozib bergan ekan, shuni qilganmi, yo'qmi, deb so'radilar.

– Chego on biyaz, biyaz? – deb ajablandi Irina. – Mog бы skazat bayaz.

– E-e, meni ham chaqirdi, – dedi Turdiali. – E'tirozlarimni qilganmi yo'qmi, solishtirib berasiz deydi. Abduzafar akam vazifa topshirganlar, deb qutuldim.

A'lam o'tirgan joyida qo'l siltab qo'ya qoldi. Keyin tortmasidan bir taxlam toza qog'oz oldi, avtoruchkasini ochib, uchini artdi-da, qog'oz yoniga qo'ydi. Sigaret qutichasidan bittasini oldi-da, qo'lida ezg'ilagancha, Xosiyatga qaradi. Xosiyat u bilan muloyim ko'z urishtirdi. Irina ko'zini bilinar bilinmas pipiratik qo'ydi, «Ladno, kurite» degandek.

Turdiali A'lamning shu yerda chekish yo chekmasligi juda jiddiy masaladek, diqqat bilan tikilib turaverdi.

Uchinchi qavatning derazasidan ko'rinayotgan osmon ma'nisiz keng edi.

– Do'stim, kirib chiqdingizmi?

– Yo'q. Kirib, nima deyman? Ko'mir tushirganimni aytgansiz.

– Endi, do'stim, boshqa nima deyishim kerak edi? O'zingiz to'g'risini aytavering, dedingiz-ku.

– Yo'q, to'g'ri, faqat menga aytishga gap qolmabdi-da.

Shu vaqti eshikni g'irt ochib, Umarov bo'g'riqib kirdi.

– Ah-ha, bu qatorlar qayoqdan? Qovog'i coliq bu bulut, maysaga do'q urar bu bulut! Nega bulutning qovog'i soliq?

A'lam o'tirgan joyida Umarovga burilib qaradi.

– Nima? Qovog'ini ko'tarib qo'yishim kerak edimi?

Umarov bo'g'ilib ketdi.

– Men ko'rgan qo'lyozmada yo'q edi-ku, axir! Kim ruxsat berdi? Bulut ham maysaga do'q uradimi? Nega bu she'rni tiqqansiz?

A'lam Umarovga qarab indamay o'tiraverdi. Umarovning fig'oni ko'tarildi:

– Siz qanaqa... bu nima hurmatsizlik?! Vazifasi katta odam oldingizga kelganda turing o'ringizdan!

– Turmasam, qulog'im eshitmaydimi?

Umarovning tili tutilib qoldi, qo'llarini ikki yoniga kerib, boshqalarga baqraydi. Tudiali stolidagi qo'lyozmaga boshi bilan yotib oldi hisob, Irina bir Umarovga, bir A'lamga cho'chinqirab ko'z tashladi, Xosiyat tortmasidan nimadir izlashga tushdi.

– Men buni shunday qo'yib qo'ymayman, – dedi nihoyat Umarov yelkasi bilan nafas olib.

– Qo'ymang, ob-havo byurosiga arz qiling, – dedi A'lam befarq ovozda. – Yog'dirib yuboring shu bulutni.

Umarov yana guvlab ketdi:

– Nima?

– Hey, hey, do'stim! – dedi Turdiali.

Shu vaqti eshik yana ochildi-da, Vazira boshini suqdi:

– A'lam aka! Tez! Chaqiryaptilar. Nimaga imillaysiz? Choping!

Bir boshlandimi, tamom, ulanib ketaveradi. Endi bularning Abduzafar akasi burov soladi. «Mehnat jabhasida javlon urdingizmi? Hasharga chaqirmabsiz-da, a? Lekin Staxanov bir smenada o'ttiz to'rtta norma bajargan, siz ikki tonna ko'mirni yarim kun tashibsiz», deydi. Avval yana nima balolar deb ezmalanadi, kinoyani bopladim deb o'ylaydi-da, keyin muloyimgina hamla qiladi. Hamalani haqiqatan boplaydi, paryostiqlikdek bosib bo'g'adi.

Lekin bu safar Abduzafar akaning o'zi bo'g'ilib o'tirgan ekan. Shalvirab, gastugi bo'shatilgan, yuzlari solinib, ikki yonog'i jonoqi olmadek oqi oqqa, qizili qizilga ajralib turgan edi. A'lam salom berdi, salomini o'zi eshitdi, Abduzafar aka jim alik oldi-da, ko'zoynagini yechib, mijjalarini siqdi. Keyini oldidagi telefonga iyak qoqdi-da, bo'shshagan tovushda:

– Gulimoh Yulduzovna... – dedi.

A'lamning yuragi tushib ketdi. Boyadan beri, Sojidani siltab tashlab, Umarovga sanchib olganida ham, hozir bu yerga Abduzafar akani yanib kirayotganida ham Gulimoh opasiga orqa qilganini, anchadan beri unga suyanib kelayotganini va hozir endi birdan yolg'izlanib qolganini angladi. Nogahonda-ya?! Telefondan xabar qilibdilar-da. Sho'rlik, «Oldinda hali hayot bor», deb yurar edi-ya!

Abduzafar akaning bir oz hurmat aralash cho'chinqirab qarab turgani ham hamdardlik bildirayotgandek tuyuldi.

Abduzafar esa A'lamning rangidan qon qochganiga o'zicha taskin berdi:

– Ko'ngilni ko'taring. Balki topshiriqlari bordir.

– A? Topshiriqlari? – A'lam boshqa gapirolmadi.

Gulimoh opa! Uning ko'kragida allambalo shodiyonalar bo'lib ketdi. He, asablarning ham padariga la'nat!

Abduzafar aka ko'zoynagini qayta taqib, telefonni A'lamga tomon surdi:

– Shu yerda gaplashavering. Xonalarinda har kim bor.

A'lam raqam terish barobarida o'zini ancha bosib oldi.

Opaning ovozi derazadan ko'rinib turgan osmon qa'rida kumushdek ohista sado berib keldi.

– Qandaysiz? Yozyapsizmi yo olishib yuribsizmi?

– Rahmat, opa! Rahmat!

A'lam hozirgi quvonchi uchun rahmat aytayotgan, uning quvonganidan Abduzafar akaning ham yuzi yorishib ketgan edi.

– Ishlar qanday? Nima yordam kerak?

– Rahmat! – dedi yana A'lam. – Hech narsa kerak emas.

Abduzafar aka A'lamning har bir gapiga bosh irg'ab turardi: juda yaxshi, rahbariyat bilan ha-a ana shunday gaplashish kerak!

– Yozda juda yaxshi ishlab berdingiz, qanday taqdirlasam deb yurgan edim. O‘ylab-o‘ylab, bitta sovg‘a topdim.

– Sovg‘a?

– Ha, – dedi Gulimoh Yulduzovna qiz boladay erkalanib. – Bu yigit uchun eng yaxshi sovg‘a – obuna, dedim. Qanday? To‘g‘ri topibmanmi?

– Albatta! – dedi A‘lam ham ochilib. – Bunaqa sovg‘ani bermasangiz, tortib ham olaman. Kimning tomligi?

Abduzafar qo‘lini silkib, boshini chayqab qoldi. A‘lam e‘tibor qilmadi.

– Tomlik emas, «Literaturnaya gazeta».

– E-e, bu doim kiosklarda bor, – deb tushuntirib ketdi A‘lam. – Tanish kioskachi menga olib ham qo‘yadi.

– Voy, shunaqami?

– Ha, hozir juda bemalol.

– Men buni defitsit deb yurar ekanman. Sizga bir syurpriz bo‘lsin degan edim-da.

A‘lam Gulimoh Yulduzovnaning birdan ko‘ngli cho‘kkanini sezdi, lekin endi tuzatishning iloji yo‘q, haqiqatan ham «Literaturnaya gazeta» kiosklarning oynasida kun bo‘yi osig‘liq turadi, bitta-ikkita maqolasi uchun falon pulga obuna bo‘lish hayf edi.

– Gulimoh opa, qani edi menga «Inostrannaya literatura» bo‘lsa.

– «Inostrannaya literatura?» – Opaning ovozi uzoqqa ketib qoldi.

– Menga orzu-da bu. Dahshat bo‘lardi lekin!

Abduzafar aka yana qo‘l silkib, o‘rnidan turib ketdi. A‘lamga qarab boshini chayqadi, unsiz allanimalar dedi.

– Bu jurnal bizda ham qiyin masala, – dedi Gulimoh opa o‘ychan ohangda. – Men bo‘limga zo‘rg‘a undirganman. Yana bitta topishim juda og‘ir bo‘lsa kerak.

– Markazkomda-ya? Unda, opa, qo‘yavering, – dedi A‘lam.

Abduzafar aka ko‘kragiga urib, o‘ziga ishora qildi, A‘lam unga bir qarab qo‘ydi-da, tushunmaganga oldi.

– Yo‘q, umidni uzmaylik, – dedi Gulimoh opa. – Harakat qilaman. Bo‘lib qolar .

– Siz harakat qilsangiz – bo‘ladi, opa! – dedi A‘lam ishonch bilan.

– Menga-chi, biron soatlardan keyin telefon qiling. Topsam, kelib pulini to‘lab ketasiz.

– I-ya, Markazkom bir yosh ijodkor uchun yigirma to‘rt so‘m sadaqa qilolmaydimi?

– Ijod qilmang, – dedi Gulimoh opa. – Nima, shuncha ham pulingiz yo‘qmi?

– Topaman, opa. Hazillashdim.

A‘lam xonaga kirar-kirmas cho‘ntagini namoyishga kavlatadi.

– Turdiali, xo‘sh, bo‘lsa, jo‘ra, o‘n beshni biz tomonga safarbar qilsangiz. O‘zimizda o‘n bor ekan.

– Topamiz. – dedi Turdiali yengil tortib – Ko‘mirning qorasini yuvar ekanmiz-da. Xayriyat, yumshabdilar-da?

– Ey... obuna ekan. «Inostrannaya literatura» undirdim.

Turdiali ishonmadi:

– Abduzafar akam-a? Shunga shunchamidi?

– Gulimoh opa izlattirgan ekan. «Literaturnaya gazeta»ga obuna qildiray deb. Men kerak emas, kiosklarda ochiq sotiladi, menga «Inostrannaya literatura» topib bering dedim.

A‘lamning gapi barobarida Turdiali hayratlanib o‘rnidan turib ketdi.

– Vo-o! Gulimoh Yulduzovna opamning o‘zlarimi? Sekin aytasizmi, do‘stim! Nima dedilar?

– Nimani? – deb tushunmadi A‘lam.

– Anavi... «Drujba narodov» edimi...

– «Drujba»ni boshimga uramanmi? «Inostranka»! Borib pulini to‘lash kerak.

– Voh! Lekin do'stim, bekor qilibsiz. Bekor! «Muxbir»ga demaydilarmi, qulluq qilib olaverish kerak edi. Eslaganlarining o'zi har qanday mukofotdan yuqori-ku. Bu yoqdagilar jinni-ey! Nimalar qilamiz deb yotishibdi-ya! Tovuqmiyalar! Siz o'tirib turing. Pulni o'ylamang, topamiz. Men jarayonni to'xtatib kelay. Bu yog'i endi zo'r bo'ladi.

– Qanaqa jarayon? – dedi A'lam.

Turdiali qat'iyatli tus bilan eshikka yo'l oldi. Irina unga hayron bo'lib qaradi, Xosiyat oy-kuni yaqinlashib qolgan kelinlarga xos ma'yus, rahmli jilmayib qo'ydi.

Bir xil vaqtlari yuqorining ham ishlarini tushunmay qolasan. Mas'ul joylarga shunaqalar ko'tarilib ketgan! E tavba! Jurnalga obuna-ya! Fahmingdan o'rgildim. Yurgan bir darbadarga. Och qoringa sassiq sarimsoq! Talant emish. Bu ham dudama tig'dek bir narsa-da, qancha o'tkir bo'lsa, shuncha o'zingni kesadi, solinib turadigan qini bo'lmagandan keyin. A shuni, mana, bari bir telefon qilar ekansan, «Abduzafar Abdusafarovich, sizda bir bola ishlaydi, Kamolov A'lam degan, shuni nazoratga olib qo'ying. Hozir bilasiz-ku partiyamizning yosh kadrlarga e'tiborini», de, bo'ldi! Aqlli odam, o'zi tushunib oladi. Uyga navbatga tirkamaymanmi, partiyaga nomzodlikka ilintirmaymanmi, bulbulning qanotidek bo'lsa ham to'plamchasini rejaga kiritmaymanmi? Ana o'sdirish, mana e'tibor! Obunang chikora! Jurnalningdan boshpanasiz yigit o'ziga kapa qurib olsa ekan. Shunga u yoqdan azza-bazza telefon, bu yoqda bunisining irg'ishlashini! Pastdagilarni ahmoq deb o'ylaydi-ey bular!

Endi o'ylaysan-da odam, shu, xudoning turavergani ham yaxshi edimi deb. Yo'q, mayli, o'rtadagi popu mullalarni yo'qotishimiz to'g'ridir, lekin xudoning o'zining uncha zarari yo'q edi shekilli. Bizlarniki, rasmsizining. Sen ko'rmaysan, lekin u seni ko'rib turadi, undan hech bir narsani yashira olmaysan, ko'p organlarning ishi kerak ham bo'lmas edi-da lekin. Rosa oylik pullar tejalar edi-da. Bu rafiqqa o'rtoqlar ham tepaga chiqib ketmas, har qalay, joyini bilib, uyida bolasini boqib o'tirar edimi? Endi, buni qarang, ko'kragim cho'ziladi, ko'rinishim buziladi deb, tuqqanini o'zi emizmasa, «malyutka»mi, «malish»mi degan narsa bilan boqsa! O'zing nimani emib katta bo'lding, deydigan odam yo'q. Indamasang, erkaklarning o'zi ham tug'sin, deydi bular! Katta-katta mansablarga chiqib olganlar, TNO «Volga»larni minib yuradilar, hukumat telefonlaridan qanaqa ichkiyim kiyishni maslahat qiladilar. Davlat ishlari turib, bir yosh bolaga jurnal topib berish uchun yugurib yuradilarmi-ey! Bu yoqda esa Abduzafardek yukkashlar yigirma yildan beri bir nashriyotda qolib ketgan. Mayli, gullatib o'tiribdi, yetkazgan kuniga shukr, lekin ko'tarilish ham kerakmi? Og'u ichganni ichi biladi, deydilar, shuncha vaqt bir joyda o'tirishning o'zi bo'ladimi? Dardingni kimga aytishni bilmaysan. Xudoyim bo'lganda, tepadan ko'rib turib, hammasini joy-joyiga qo'yib qo'ygan bo'lar edimi...

Abduzafar aka ana shunday astoydil o'ylagani sayin xudoning kerak ekanini tuyar, uni qaytarishsa, avvalo o'zi yordam olishiga ishonar, shuning uchun ko'ngli muhtoj paytlari qulayini topishi bilan orqadagi xosxonasiga o'tib, diniy kalima yo oyatlarni bilmasa-da, og'ziga kelgan gaplar bilan tavba qilar, takror-takror «astahfirulloh» deb gunohlarini yengillatib o'tirar edi. Rostdan ham, agar tepadan tanlash ixtiyoriy, kim xohlasa, ishonsin, xohlamagan – o'zi biladi, degan ko'rsatma tushganda edi, Abduzafar aka birinchilar qatori xudoga ishonib, o'zini uning ixtiyoriga topshirgan bo'lur edi.

Mana, hech gap yo'q ekan, bitta xotinning o'ysiz telefonidan shuncha bezovtalik. Rahbar notinch bo'lgandan keyin, jamoaning ham paytavasiga qurt tushadi. Shoxiga ursang, tuyog'i zirqiraydi, degani shu-da. Ha, mayli, o'ziga shukr, bu boshga nimalar tushmagan, hali nimalarni ko'rmaydi ham, noshukr bo'lish kerak emas.

Abduzafar aka xosxonasiga o'tishga chog'lanib, shkafning eshigiga qo'l uzatgan payti qabulxona tomondagi eshik shaxt bilan ochilib, gavdasi chorpahil Umarov yengil parvoz qilib kirdi.

– Abduzafar aka! Sizdan ishni, yo'q, yashashni o'rganishimiz kerak-da.

Abduzafar aka qo'lini tutqichdan olmay:

– Nima yashay olmay qoldingizmi? – deb xushlamaganini bildirdi.

Ammo Umarov xayolchan, bechorasinibroq turgan ekan, Abduzafar akaning kayfiyatini payqamadi.

– E-e, bizlarniki yashash emas, quyun ichida uchib yurish. Ha. Misoli bir xasmiz, ixtiyorimiz yo‘q, o‘zimizga bersa ham nima qilishni bilmaymiz.

Yo‘q, farosatni ham bilmaydi bular! Chiq, demasa, o‘tiraveradi, o‘zicha bilib chiqib ketmaydi.

– Nimani bersa, nima qilasiz?

– Ixtiyorni-da. O‘zi xasga ixtiyor nimaga kerak?

He to‘nka! Shulardan anavi A‘lam ming marta yaxshi. O‘zini uzoq tutadi. Takallufdan uzoq bo‘lsa ham, o‘rnini biladi.

– Karim, sizga bir gap bo‘ldimi? Gaplaringiz chiston. Xas? Shu gavda bilan, a ?

– Xay, gavda desa, yo‘g‘onroq, lekin bari bir xas-da. Vaznimiz yo‘q, u yoqqa aylantirib uchirsa – u yoqqa, bu yoqqa uchirsa – bu yoqqa ketib boryapmiz! Siz, mana, yerda mahkam turasiz, nima ish bo‘lsa, avval orqa-oldini o‘ylab keyin qo‘l urasiz. Bizlar ishni g‘arra-sharra qilamiz deb, chatog‘ini chiqarib qo‘yamiz-da, keyin to‘g‘rilashga esimiz ketadi. Siz bo‘lsangiz shoshmaysiz, chuqur qaraysiz, masalaning tubini ko‘rib turasiz...

– Obbo, otangiz temirchimi, buncha uzib-ulaysiz?

– A? – Umarov bir dovdiradi-yu, ammo gapini bermadi. – Ha, mana, bugungi, Kamolov masalasini olaylik. Gap faqat bitta tushuntirish xatiga taqalib qolgan, bu ham bo‘lay-bo‘lay deb turgan edi.

Abduzafar aka uncha ilg‘amadi.

– Tushuntirish xati? Nimaga kerak ekan?

– O‘z qo‘li bilan yozsa o‘tadi-da. Keyin xohlagan joyiga borib dod solaversin. Sud ham bizning foydamizga hal qiladi.

Abduzafar aka sergaklandi.

– Hm... Bir kamimiz shu edi. Nima qilyapsizlar o‘zi?

Umarov chuqur nafas olib, keyin tushuntirish berdi.

– Qilayotgan edik, ha, qilayotgan edik. To‘xtatib qoldim! Shuni aytyapman-da, Abduzafar Abdusafarovich, sizdan o‘rganishimiz kerak deb! Surayyo bilan Sojidani chaqirib, operativ majlis o‘tkazgan, topshirig‘ingizni mixlagan edim. Bolaning o‘zi ham yozishga ko‘ngan ekan. Turdiali, baraka topsin, ayni vaqti kirib, o‘rtoq Islombekova opa aytganlarini aytib qoldi. O‘zim ham o‘ylab yurar edim, bu bola buncha bepisand burqsitaveradi deb. Oldingizda ham bemalol, siz ham indamaysiz. Yuqoriga tegish joyi bor ekan-da. Ha, mayli endi, omadini bersin, yoshlar o‘sishi kerak, bizlar qarshi emas. O‘zimizdan chiqqani yaxshi-da.

– Nima, Islombekova Turdialining o‘ziga bir narsa deptimi? – deb o‘smoqchiladi Abduzafar aka. – Nima degan ekan?

Umarov yelkasini ichiga tortdi.

– Yo‘g‘-e, unga demagan... sizga shekilli. Turdialidan anig‘ini so‘ramabman.

– Anig‘ini bilmasangiz, nimani to‘xtatdingiz?

– Shu... anig‘i... o‘rtoq Islombekova opaning gaplari aniq deb o‘yladim...

– Xo‘p, nima ekan o‘sha aniq?

– Shu.... haligi... opaning nazari tushganini... mukofotga jurnal deptilar-ku. Shunga Turdiali....

– Abzuzafar akamning topshirig‘i bekor dedimi?

Umarov mo‘ltirab qaradi.

– Yo‘q, unaqa demadi, o‘rtoq Islombekova opaning aytganlarini aytdi.

– Menga qarang, og‘ayni, sizga kim o‘zi direktor? Turdialimi?

Umarov qo‘rqib ketdi:

– Yo‘g‘-e, Abduzafar Abzusafarovich, nima deyapsiz, siz direktor. Siz!

– Unda nimaga aytganimni qilmadingiz? A?

– Men... men... o‘rtoq Islombekova opa qo‘llab turgan kadrni jazolasak, xijolatchilik bo‘ladimi

deb...

– A, qani haligi sanoqlar, axir? Ko'zyosh, sovuq qishlar deb turgan edingiz-ku?

– Endi... Markazkomning fikriga qarshi borib qolmaylik deb....

Abduzafar akaning chakkasi tirishdi.

– Qachongi fikrga, Karim? Men tushgacha stolim ustida bo'lsin, degan edim. Opangiz esa, soatga bir qarang, yettita kam uch, yigirma daqiqa oldin telefon qildi. Yo ertalab kelishda Chorsuda lo'lilarga fol ochdirgan edingizmi, a?

Umarov devordagi soatga itoat bilan qarab qo'ydi-yu, pastga tikilib so'lish oldi.

– Keyin, namuncha opa-opa? Sizdan bir o'n yoshlar kichkina shekilli?

– Ha, endi... yo'l ko'rsatib turadilar, vazifalari katta. Lekin yoshlikka yoshlar, to'g'ri.

Turdialining gapidan Surayyoning chehrasi ancha yorishdi. «Jazolash ham odamga yuk-da. Umarovga aytib yaxshi qilibsiz. Darrov o'zgargandir? Sojida opamga ham bir og'iz shipshib qo'ying. A'lam ham fe'lini kelib-kelib shunga ko'rsatadimi? Xo'p, opajon, desa-ku, olam guliston», dedi. «Ey-y, – deb qo'l siltadi Turdiali. – Kim bo'libdi Sojidalalar? Gulimoh opam puf desalar, uchib ketadi, uchib!» Surayyo «Kim u opa?», deb so'radi, Turdiali qo'lini tepaga bigiz qildi: «Gulimoh Yulduzovna! Vo-o!» «Sojida opam bilsinlar. Juda otashin lekin», deb yana tayinladi Surayyo.

Sojida Turdialini juda tund qarshiladi. Turdiali shuning uchun bugun nechanchi ko'rishishlari bo'lsa-da, beixtiyor salomini yangiladi.

– Hm? Valeykum. Kelsinlar.

O'rtada bir zum ikkalasining ham ko'ngliga botmagan unsiz dod-muomala bo'lib o'tdi.

– O'zlarining bo'yinlari egilmaydi, – dedi Sojida. – O'rgildim! Ko'mir tashishdan or qilmaydi, tashidim deb yozishdan or qiladi! Qiziq odamlar bor-ey! O'zi ko'mir tashib yuribdi, yana katta ketganiga o'laymi.

– Shunday, shunday, Sojidadaxon opa, yosh-da hali, po'konidan yel o'tmagan. Siz u bilan teng bo'lib yurmang endi, o'zim joyiga solib qo'yaman.

– Voy ko'nglimning ko'chasi-ey. Men o'zimga teng ko'rar ekanmanmi? Shuni-ya?

– Teng ko'rmang, sira teng ko'rmang, Sojidadaxon opa. Yo'-o'q, sizdek bo'lguncha ko'p qovun pishig'i bor. Sizning tajribangiz katta, hayotni ko'rgansiz...

Turdialining daromad qilishiga o'rganib qolgan Sojida darrov chimirilgan edi, ikki qoshining o'rtasi bo'rtib chiqdi.

– Hm, gapga o'ting. Nima deb yubordi?

– Yo'-o'q, o'zim keldim. Meni bilasiz-ku. Suv ko'rmasam, etik yechmayman. – dedi Turdiali gapiga sirli tus berib. – Men Karim akamga ham aytdim. Unaqa bo'lsa, tamom, hammasini to'xtatamiz, dedilar. Surayyoxonga ham tushuntirdim. Surayyoxon sizning oldingizda hech narsa emas-u, bari bir, shunda ham, aytib qo'yay dedim-da. Bu yog'ini endi o'zingiz silliqlab yuborsangiz.

– Nima? – deb Sojida shunday qilsa yaxshiroq tushunadigandek ikki belini ushladi. – Nimani silliqalayman?

Turdiali ko'rsatgich barmog'i bilan shiftni nuqib, tovushini bir parda pasaytirdi.

– Sekin! Sojida opa, sekin.

– Nimaga sekin ekan? «Dom»da qissaxonlik qilyapmanmi? – dedi Sojida. – Nimadan qo'rqaman? Ish bu, davlatning talabi, men shuni so'rayapman.

Turdiali Sojidaning gapidan go'yo qo'rqib ketgandek bo'ldi.

– Shunday, shunday, Sojida opa. Lekin shu davlatning yuqorisidan telefon bo'lib qoldi-da.

– Menga hech kim hech narsa degani yo'q, – dedi Sojida qat'iy qilib.

– Sizga emas, – deb Turdiali o'tirgan joyidan direktor qabulxonasi tomonga ishora qildi, – bu yoqqa! A'lamni jazolash emas, mukofotlash haqida gaplar bo'lyapti.

– Menda ham telefon bor, o'zimga aytishsin, keyin gaplashamiz, – dedi Sojida. – Hozir boshimni

qotirmang. Kim kimni mukofotlasa – ixtiyori, men ham o‘z ishimni qilyapman. Tushunarlimi?

Turdiali qartani ochishga majbur bo‘ldi.

– Sojidadxon opa, aytmasa qo‘ymayapsiz... Gulimoh Yulduzovna! Opamning o‘zlari telefon qildilar!

– Gulimoy Qunduzovna? Kim u?

Turdialining rangi o‘zgardi.

– Siz nima? To‘g‘rilab ayting! Nima, bilmaysizmi?

– Voy, – deb hayron bo‘ldi Sojida. – Nimaga vahima qilasiz? Bilmaganni bilmaydi-da. Kim? Gulixon Qunduzov... kim, kim?

– Gulimoh Yulduzovna! – deb shivirladi Turdiali alami kelib.

– Bilmayman, – shunday deb turib, Sojidaning birdan achchig‘i keldi. – Bilishni ham istamayman! Nima, bostirib o‘tib ketaveradimi? Bu yerdagilar odam emasmi? Mening qo‘rqadigan joyim yo‘q. Yarim kun progulmi – tamom! Davlatning ishini talab qilyapman, davlatning qonunlarini esa o‘zim chiqarmaganman. O‘sha Gulimoymi, Gulixonmi, u ham shu qonunlar bilan ishlaydi, ha. Men sizga soyasidan qo‘rqadigan Karim akangiz yo ko‘zini suzib o‘tiradigan Surayyo emasman.

– Iy-e?

– Ha? Nima desam laqqa tushadi, deb o‘ylagan edingizmi? Bu sizga «Xo‘roz qu-quladi, tovuq qoqog‘ladi» deb, shuni ham ikkiga bo‘lib yozib, qatoriga bo‘lak-bo‘lak pul olish emas.

Turdiali angrayib qoldi.

– Kim pul olibdi? E-e, qanaqa xo‘roz?

– Shunaqa-da, – dedi Sojida to‘rsayib. – Xo‘roz bo‘lmasa, boshqasi. Bultur ikki ming uch yuzu yetmish ikki so‘mni qurtday sanab oldingiz-ku?

– Ha, oldim, – dedi Turdiali. – Kitobimga.

– Kitobimga? – deb zaharxanda qildi Sojida. – Shapaloqday ham kelmaydi-yu, kitob emish. To‘rt qatori – bir bet. Odamlarni aldab pulini olish. Bu yoqdagilar esa sakson so‘m uchun bir oy ikki bukilib, ko‘zining nurini ketkizadi. Bular «Tong otdi, kun chiqdi», deydi, har qatori pul tug‘ib turibdi. Yana osmondan keladilar, opachalarini o‘rtaga soladilar! – Sojida boshini orqaga tashladi. – E-e, chiqib, o‘sha g‘o‘dayganga ayting, yuqoriga chopavermay, pastga tushib, egilishni ham o‘rgansin. Bu yerdagilar oyoqning tagida yotgani yo‘q. Davlatning qonuni oldida hamma bir.

Turdiali Sojidaning tirsillagan ikki beti o‘rtasidan buqib kelayotgan qo‘shog‘iz miltiqdek burni, uning ustidan o‘qdek qadalgan ko‘zlariga ko‘zi tushib, galdiraklab qoldi.

Umarov ziyrakligini ko‘rsataman deb kirgan edi, lekin yo‘q yerdan o‘zini o‘zi tutib berganini anglab, endi nima qilishga hayron turib qoldi. Abduzafar aka qo‘lini orqaga qilib, kabinet o‘rtasiga chiqdi-da, Umarovga bosim bilan qaradi. Umarov itoatning quyma haykali bo‘lib qotdi.

– Xo‘p, deylik, yarim kun ishga kelmadi. Ijarasiga ko‘mir kelib qolibdi, shaxsiy ish, uzrsiz sabab, lekin sharoitini tushunib, kechirish mumkin. Ana, Islombekovaning aytganini ham oldik. O‘zi aloqasi yo‘q, lekin, xo‘p, mayli endi. Lekin bayozni nima qilamiz? Jonivorning tiraji qancha, oltmish ming edimi? Haligi hisobingizdagi siyosiy xatolarni cho‘tga qoqsak, respublika bo‘yicha qancha tarqalgan chiqadi? Oqqan ko‘zyosh, sovuq qishlar, go‘r ustida mitingmi, nima edi? Xo‘sh, nima qilamiz? Yo Islombekova buni ham aytdimi? O‘zingizga sim qoqqandir? Yopig‘lik qozon yopig‘ligicha turaversin, dedimi? A?.. Yo‘-o‘q, o‘rtoq opangiz bundan bexabar, bilsa bormi, osadi! Oyog‘imizdan!

Umarov avval telefonga, keyin Abduzafar akaga mo‘ltiradi-da, boshini yana quyi soldi.

– Ana o‘shanda ko‘rasiz tushuntirish xatini! O‘ligingizni Surayyo yo Sojidaga orta olmaysiz, siyosiy xatolarni ko‘ra-bila turib qanday o‘tkazganingizni tushuntiri-ib yozasiz! Ha, o‘zginangiz yozasiz. Betimga kulib qaraydi, aytganimni qilmaydi emish. Ey, nimaga bu gavdani ko‘tarib yuribsiz, bitta bolaga gappingiz o‘tmasa? Xasman, deysiz. A rahbar-ku siz ham! Eshagingizni men loydan chiqarib beraymi? Men qaysi bir ishga bo‘lay? Nashriyotni yurgizaymi yo bir yosh boladan

alamingizni olib beraymi?

Endi bu yog'iga chidab berish kerak. Abduzafar aka «men»ga o'tdimi, ezib yuboradi. Kabinet o'rtasida u yoqdan bu yoqqa yurib, nutq irod qiladi. Shu bilan ochiladi, maddasi yoriladi, ichidagini to'kadi, bir tomoni yaxshi, bu ham ochilgisi, yorilgisi kelganidan, har kimga ham bunday qilavermaydi, axir, bu ham Umarovni o'ziga yaqin olganidan.

– Gapiring. Mening gapim sizga gap bo'lmay qoldi shekilli. Buysungingiz kelmayotganga o'xshaydi. Bo'shlik qilyapman-da, a? Men bilaman sizlarni, pensiyamga kun sanab yurasizlar. – Abduzafar akaning o'ziga o'zining rahmi kelib, ichdan ezilib ketdi. – Boshimga chiqib olmoqchi bo'lasizlar. Qanaqadir tankami, pushkami degan narsalarni tumshug'imga tiqib, sinab ko'rasizlar, oq qorning ustida qora qarg'a deb. Men hammasini bilaman, ha, bilaman, lekin indamayman, chidayman. Chunki bitta o'zimman. – Abduzafar akaning ko'ragini siqib turgan nimadir qo'yib yuborib, ovozi balandlashdi. – Ha, shunday! Talant ko'p, hozir har daraxtni tepsang, to'pillab talant to'kiladi. Lekin direktor tushmaydi. Chunki talant yuzta, direktor bitta. Direktorlikka talant emas, – Abduzafar aka qo'lini uchlik musht qilib, o'z boshiga ishora qildi, – kalla kerak mana bunday! Bu sizga Shohidga o'xshab, Peredelkinoda oldiga bir yashchik aroqni qo'yib olib, o'zi bormagan tayga to'g'risida «Tayshet, Urengoy, BAM, BAM» deb doston yozish emas, har kungi og'ir ish, qora mehnat bu!

Umarovning vujudi quloqqa aylandi, bu ta'na- dashnomlar faqat uning o'ziga emas, balki kabinetga kirishga haddi sig'may, tashqarida intizor qarab turgan mustar hamkasabalarga aytilayotgan, Umarov esa ular ishonib kiritgan vakolatli odam, bironta ham so'zni tushirib qoldirmay, oqizmay-tomizmay egalariiga yetkazishi kerak edi. Aybni ham Umarov qilgani yo'q, butun gunoh jamoada, Umarov esa hamma uchun mardlarcha bo'ynini egib o'tirar edi.

– A o'pkani bosinglar. Hali partiya pensiyaga javob beradimi, yo'qmi? Abduzafar akangizdek direktor ko'chada yotmasa kerak. Keyin, keladigan odam sizlar bilan ishlar ekanmikan, shuni o'ylab ko'rasizlarmi hech? Yangi direktorning komandasi ham yangi bo'lmaydimi?

Umarovning yuragi orqaga tortib, vahima ichida qo'llarini to'lg'ashidan Abduzafar akaning o'zi ta'sirlandi. Pensiyaga uzatilib, o'rniga boshqa odam tayin bo'lishi xayoliga kelib, ichi shuvillab ketdi. Yigirma bir yillik umri shu yerda o'tdi, axir. Ikki yil direktor o'rinbosari, o'n to'qqiz yil direktor. Bu yerdagi hamma narsa o'ziniki. Anavi po'lat seyf, ustiga ko'k movut sirilgan stol Mirrahmat akadan qolgan, lekin bular ham o'ziniki bo'lib ketgan. Faqat narsalar emas, odamlar ham. Eskilardan kim bor? To'ra Qurdoq, Meliboy, Marhamat, qorovul Sulton, Bolqonoy Begimqulova, xo'p, yigirmatacha chiqar, oshiqroqdir, qolganlarining hammasini Abduzafar akaning o'zi ishga olgan, oldindan ishlab kelganlarini ham shunday qoldirmagan, yo amalini, yo toifasini oshirgan.

– Albatta, partiya nomunosib odamni qo'ymaydi. O'rtoqlar kimni qo'yishda o'zimdand maslahat oladilar. Lekin yana bitta Abduzafar topilarmikan? Keladigan odamning o'rniga bir o'zingizni qo'yib ko'ring. Bosh muharrir o'rinbosari kirsas, ho'kiznikiday gavgasi bilan. Ko'z yosh qilsa, bir yosh bola gapimga kirmadi, toshingni ter, dedi, endi o'zingiz kalla-pocha qilib bering, desa? Tur-e, yo'qol, a, sen o'zi kimsan, mahallada samovarchimisan yo bosh muharrir o'rinbosarimi, demaysizmi? To'g'rimi? Ana, shunaqa, payti, Karimjon, Abduzafar akangizning qadri o'tadi, lekin kech bo'ladi. Hozir esa bilmaysizlar. Hozir Abduzafar akangiz kim? Sizlarga bir xizmatkordek gap. Sizlar uchun ertayu kech o'pkasi og'ziga tiqilib yuguradi, telefon oldida jonini hovuchlab o'tiradi.

Turdiali Sojidaning oldidan chiqib, Umarovning eshigini tortib ko'rdi, yopiq ekan, to'xtamay kadrlar bo'limiga kirib keldi. Surayyo qo'lida chinni choynak, bir nimalarni xirgoyi qilib, tokchadagi gullarga suv quyayotgan edi. Boshqa mahallari «Gullarga suv berar gul, guldand uyalar gullar» deya gapini bir xil hazildan boshlaydigan Turdiali bu gal juda kuyib ketayotganini bayon qildi.

– Sovuq choy yo'qmi, a? Hozir ichimga gurgut chaqsa, pov etib yonib ketaman lekin! I-i, to'kmang, bering menga.

– Tinchlikmi? Namuncha?

Turdiali choynakni olib, bir ko'zi Surayyoda, jo'mrakdan yutoqqan bo'lib ko'tardi. Surayyo uning gapini eshitishga hozirlandi.

– Ey, nashriyotimiz kimning qo'lida o'zi? Bitta xotin hammani o'tirg'izib-turg'izsa, qanday kunga qoldik?

– Nima bo'ldi o'zi, Turdiali aka? Sojida opammi?

– E-e, opa demang shuni. Opaligi yo'q uning. Fiybatchi! Yo'q, men uni gapirmayman. Og'zimni og'ritib nima qildim. Gapirishga arzisa ekan. Agar hayot shu Sojidalarda tarafida bo'lsa, hayotdan ham noroziman. Men Abduzafar akamga ham shu gapni aytaman.

– Turdiali aka, ayting endi, nima, urishib qoldingizmi?

Turdiali choynakni Surayyoga uzatdi.

– E-e, shu xotin bilan urishamanmi? Arzimaydi deyapman-ku. Lekin o'zimni tutolmayapman. Shu tuhmat gapga tobim yo'q, bir malohatli, go'zal juvon haqida bo'lsa, qonim qaynab ketadi, chidamayman, Surayyoxon

Surayyo beixtiyor Turdialiga talpinib, yalingannamo so'radi:

– Ayting, Turdiali aka, nima dedi? Menimi? Hay, ayting!

Turdiali o'zini orqaga tashladi.

– Yo'q, aytmayman! Oralarini buzib nima qilaman. Doim birga choy ichasizlar. Yaxshi gapni jon deb aytar edim. Lekin yomon gapni tashib yurish, yo'q!

Ayyor Surayyo Turdialini gapirtirishni juda yaxshi bilar edi.

– Sojida opa men haqimda sira yomon gap aytmaydilar.

Turdiali laqqa tushdi:

– Aytmaydilar?! Shu xotin, a? Aytmaydi emish! Hammaga ko'zini suzadi, degani yaxshi gap ekan-da, a?

Bu gap Surayyoga Turdiali kutganchalik ta'sir qilmadi. Surayyo achchiq iljaydi, g'amza bilan kulib ham quydi.

– Ajab bo'пти, u ham suzsiz-chi ko'zini. Biron it qarar ekanmi?

Turdiali Surayyoning kayfiyatini ilib oldi.

– Suziladigan ko'z qolmagan, Surayyoxon.

– Birovlarning g'iybatini qilguncha, sal oriqlasin. Qarang, to'lishib ketganini.

– Kechirasiz-u, Surayyoxon, keng ko'ylagiga sig'may qolibdi. Yana kechirasiz, tilim yomon, shu, o'zi ham cho'chqaday semiribdi lekin.

Surayyo ijirg'anib yoqasini ushladi.

– Voy. Turdiali aka, har kuni beshta buyurtma somsa yeydi, har kuni! Yeyishiga qarab turib, ko'ngillarim aynib ketadi. Beshta-ya!

– Beshta? Yana buyurtma! Voy-bo'! – Turdiali Surayyoning oshirayotganini bilib tursa ham, juda hayratlandi. – Men, erkak odam, uchtani zo'rg'a yeyman. Beshta somsaga necha choynak choy ichish kerak? Odamning ichi hovuz bo'lib ketadiyu.

Surayyoning zavqi keldi.

– Bochka deng. O'xshaydi-ku. Dumaloq.

Surayyo sharaqlab, Turdiali, alami tarqalmagan edi, asabiy kuldi.

– Bu bochkaxon opangiz gonorarlarimizni ham hisoblab yurar ekan.

– Voy, unga nima? Yonidan beryaptimi?

– Bitta she'rga nechta somsa yesa bo'ladi deb sanasa kerak-da. Yo'q, men buni shunday qo'yib qo'ymayman.

– Qo'ymang. Turdiali aka, nima haqqi bor?

Bu qurilmalar o'ramini, turli yillari uch, to'rt, besh qavatli qilib, bir-biriga matab qurib tashlanavergan, yana o'rtalaridagi betartib imoratlari havozaga o'xshagan ko'priklar bilan tutashtirilgan,

achchiq ichakdek o'ralib-buralib katta bir hududni qoplab yotgan bu binolar to'dasini, yana nima deb atashga ham odam hayron. Matbuot qo'mitasi, bir o'ntacha nashriyot, ko'p nashrlar, qanchadir bosmaxona, shularga tegishli katta-kichik muassasalar, qanaqadir «lit-pit»u «jek-mek» degan mahkamalardan otini hech kim eshitmagan idoralargacha shu yerda bor edi. Tashqaridan kelganlar bu yerdagilarning ish joylariga adashmay kirib chiqishlariga qoyil qolar, A'lamga o'xshagan parishonxayollar osti yo ustidagi qavatda qaysi tashkilot joylashganini bilmas, bilishga qiziqmas ham edi. Mana, ichkari hovlining gird-aylanasida gursillab, shiyqillab, tirsaklarini o'ynatib bosma mashinalar ishlab yotadi, taxlam-taxlam kitoblar, yana qanaqadir nashrlar tog'-tog' uyuladi, yana bir pasda tashib ketiladi. Lekin ne vaqtlardan beri o'rta devorga tirab ustma-ust qalangan ko'k temir bochkalar qimirlamay turadi. Turgani mayli, lekin joylayotganda avtokranning panjasi teshib yubordimi, yo bochkalarning ichida qanaqadir kimyoviy ko'pirish bo'lib, yorildimi, tagidan bo'yoq oqib chiqdi. Ko'ki, qizili, sarig'i qoramtir asfaltning ustiga yoyilib, yana u yer-bu yeri tutashib-aralashib, shunday bir ajoyib manzara beradiki, tomosha! Ayniqsa ko'ki, xuddi osmonni asfaltning ustiga quyiltirib qo'ygandek jilolanib, odamning ko'zini quvnatadi. Lekin hidi! Gapirmang. O'shandan beri oqqan bo'yoqning ustidan chilpillatib qancha mashina o'tdi, odam yurdi, bir-ikki marta havo yog'di, boshqa paytlari doim oftobning tig'ida, lekin hidi o'sha birdek o'tkir. Ha-ya, chalg'ib ketdik, bu yerda ega shunchalar ko'pki, mana shu bo'yoqlarni kim nimaga olib kelganiyu nimaga shuncha vaqtdan beri dunyoni sasitib yotganini hech kim bilmaydi. O'ylab qarasangiz, juda qiziq, shuncha bochka bor, ichi to'la bo'yoq, bo'yoq bo'lganda ham a'lo navli, juda zo'r bo'yoq, hazilakam pulga kelmagan, lekin egasi yo'q. Egasi topilsa, odamlar kirib: «Jon aka, umringizdan baraka toping, ishlating buni, nafas ololmayapmiz, axir», deb aytib ko'rar edilar. Yana ham kim biladi, kimniki ekani haqidagi bahsu munozaralar ham ayni shu egasi noma'lumligi uchundir, ma'lum bo'lgani zahoti qizig'i ham qolmasa kerak. Ey, keyin, egasi topilmasligi aniq, aks holda shu vaqtgacha bo'yoq shunday turar edimi.

Agar shu atrofdagi hammani bezovta qiladigan shu hidni aytmasa, bu yerda birov bilan birovning ishi yo'q. Uchinchi qavat ham dolondan havoda o'zicha muallaq osilib, dunyoga faqat telefon simlari bilangina bog'lanib turgandek tuyuladi.

Dolonning ikki tomonidagi tuynukcha o'rniga kimlar o'tirgani yozib qo'yilgan qator-qator eshiklarning ichkarilarida qo'lyozma tahririga hukm etilgan erkagu ayol aralash mahbuslar, ijod mahkumlari qamalgan. Dolon bo'ylab mirg'azab Abduzafar aka. Mahkumlar xudoning har bir yorug' kuni o'z ixtiyorlari bilan kelib, ertalab to'qqizdan, kechqurun oltigacha oldilaridagi qog'ozlarga, derazadan ko'rinayotgan osmonga, to'yib ketgan bo'lsalar-da, yana bir-birlariga termilib o'tiradilar. Dolonda Abduzafar aka hushtagini chalib, har bir erksizning qanday xomuza tortganiyu nima zaruratga chiqqanini nazorat qilib yuradi.

Hozir Abduzafar aka ko'rinmayotgani uchun dolonda hayot bordek. Yozuv mashinkalarining chitir-chitir, shitir-shitiri aralash bosinqi g'ovur eshilib, dolon anchadan beri to'xtab turgan, lekin hozir, mana, hozir bir silkinib, pishqirib harakatga keladigan allaqanday bir mahluqqa ham o'xshar, qimirlasa, havosi ham yurishib ketadigandek tuyular edi.

«Ishdagi odamlar uchun erkin bir joy bo'lishi kerak, – deb o'ylab, A'lam kutilmaganda xayoliga kelgan fikrdan o'zi ham ta'sirlandi. – Mana, mahallada ko'cha, istagan odam chiqadi, aylanadi, birov qo'y, demaydi, chunki hammaniki-da, nima ishing bor, o'zing ham yuraver, boshqalarga xalal bermasang bo'ldi-da. Ko'chaga bir kishi xo'jayin emas, bu aqlga ham sig'maydi. Bu yerda esa bir odam butun boshli dolonni o'ziniki qilib olgan, lekin birov yurak yutib g'ing demaydi. «Biz ham odam, balki bizning ham dolonda qo'limizni belga qo'ymasak ham, tahrirdan toliqib qotgan barmoqlarimizni qirsillatib, hushtak chalmasak ham, ming'irlab xirgoyi qilib yurgimiz kelar», deb ayta oladigan til yo'q. Hamma o'zini ichkariga olib, bir-biriga «Yuribdilarmi?» – «Yo'q, ko'rinmayaptilar. Chiqsangiz bo'ladi.» – «E-e, xudo asrasin. Chiqib qolishlari mumkin.» – «Ha, och qornim – tinch qulog'im» – «Ey, xudoyim. Hushtagini kabinetida chalsa bo'lmaydimi, a?» – «Shuni ayting, oyog'ining chigilini ham yozsin kabinetida. Hatto koptok tepsa ham bo'ladi-ku» – deb unsiz

hasratlashib o'tiradi.

Mana, hozir Abduzafar aka kabinetida, lekin dolonga chiqqan odamning ko'zi olma-kesak teradi, qulog'i ovda, har bosgan qadami ish bilan yurganini pesh qiladi, hatto anov yoqqa borayotganini ham, ishoralab yo bir yerini ushlab, atay bildirib o'tadi. Chunki istagan payti hushtak chalinib qolishi mumkin-da.

Bunaqada dolonda chekkan odam ham yoqmaydi-da. Xuddi boshqalarning erki hisobiga erkalik qilayotgandek. O'zi, umuman, dolonning havosini buzish ham yaxshi emas.

A'lam Turdialining kadrlar bo'limiga kirib ketayotganini ko'rgan edi, hali chiqqanicha yo'q. Sojida xonasining eshigini ochib bir qaradiyu yana yopib oldi. Choynagini ko'tarib Mahkamboy aka Shoakbar akaning xonasidan chiqdi, A'lamga «Ha, ko'mir kepti-da, yaxshi qilibsiz. Endi uch oy qish, g'am nima, bilmaysiz. Faqat boxabar bo'ling. Ishqilib, Sibirning pista ko'miri emasmi? O-o, ana shuni yoqmang. Ko'p odamning uyi shundan yongan. Tunuka pechkalarni kuydirib qo'yadi. Keyin anavinaqa, yong'oqqa o'xshagani ham bor, u ham qimmat-u, yaxshi emas. Eng yaxshisi – shu o'zimizning Ohangaronniki. Ham arzon. Pechkaginaga to'rtta tashlab qo'yib, kun bo'yi maza qilib o'tirasiz. Lekin havo yuradigan joyini yopmang. Birovlar yonib bo'ldi, endi issig'i chiqib ketmasin, deb yopib qo'yadi. Ko'p odam shundan nobud bo'lgan. Ha, isdan ehtiyot bo'lish kerak. Is deymiz-u, o'zi bu zaharli gaz, is gazi. Anavi joyini bekitib, uxlab qolsangiz, tamom, kalima qaytarmay ketib boryapsiz. Omon bo'ling», deb o'zining xonasiga kirib ketdi. Bir og'iz gapirma ham, hamma tomoni oh-vohdan iborat, qo'ltig'ida bir dasta qo'lyozma bilan E'tiborxon opa o'tdi.

Irina bilan Xosiyat A'lamga ma'noli qarab qo'yib anovi yoqqa o'tgan edilar, ancha noqulay bo'ldi. U xonasiga kirib ketmoqchi edi, Sojidaning eshigi yana ochilib, uni chaqirib qoldi.

– Hey, uka! Bu yoqqa bir kiring.

A'lam garangsib qaradi.

– Ha, Kamolov. Siz! Keling, yeb qo'ymayman. qo'rqmang.

A'lam qo'rqmadiyu nima deb o'ylashni ham bilmadi. Sojidaning xonasi tor, bir tomoniga, faollar uchun shekilli, qator har xil eski tuski kursi, bu tomoniga ustiga guldor mato yopilgan, otam zamonidan qolgan ikkita yumshoqkursi yonma-yon qo'yilgan edi. Sojida, o'zi to'rga o'tib, A'lamga bitta yumshoqkursidan joy ko'rsatdi. Yumshoqkursi cho'kkan, o'rindig'i chuqur, o'tirgan odam keti bilan tushib ketar edi.

Sojida o'tirgan joyida egilib, boshmog'ini shippakka alishtirdi-da, oyog'ini bu yoqqa chiqardi.

Xonaning hovliga qaragan derazasini Sojida A'lamni chaqirishdan oldin ataylab ochgandek edi.

– Bunaqa emas-da, ukam. Kelganingizga qancha, hali ikki yil ham bo'lgani yo'q-da, a? Halitdan burningiz ko'tarilib ketgan. Men o'n sakkiz yildan beri shu yerdaman. Qizligimda kelganman. Ha, qiz edim, – dedi Sojida endi qizligi o'tib ketgani, buning sababchisi xuddi A'lamdek iddao bilan. – Farroshlikka kirib olib, mashinistkalikni o'rgandim, korrektor bo'ldim, tinim bilmadim. Eh-he, bu nashriyotni nashriyot qilguncha nimalarni ko'rmadim. Necha yil paxtalar terdim! Lekin, mana, xudoga shukr, kam bo'lmadim. O'sib, shu darajagacha keldim. Ayol boshim bilan. Lekin o'zim ham shuncha yildan beri biron marta bulitin qilganim yo'q, ha biron marta ham. Sira davlatni aldamayman. Shunday ekan, alam qilmaydimi, kecha kelgan odamning burni ko'tarilib, odamni odam o'rnida ko'rmasa?

Ochiq derazadan bo'yoq hidi gupillab kirdi.

– Uzi, – dedi A'lam burni achishib. – Qanday o'tiribsiz?

Sojida o'zining oyog'iga qarab oldi-da, birdan hurpaydi.

– Qanday o'tiribman? Qanaqa o'tiribman ekan? Ha, o'tiribman-da, nima ishingiz bor?

A'lamning nazarida Sojida ham bulutdek burqsiyotgandek edi.

– Yo'q, opa, tushunmadingiz...

– Nimani tushunmayman? Men tushunmas ekanman, siz aqlli qilib gapiring.

Ichkari hovlida yo bochkalardan biri yorildi, yo shabada turib, bor bo'yoq hidini bu yoqqa haydadi, ishqilib, xonada nafas olib bo'lmay qoldi.

– Bu... qanday chidab o'tiribsiz? Dimoqni yorib yuboray deydiyu!

– Nima?

– Bu sassiqni aytyapman.

Sojida nihoyat tushundi, lekin past tushmadi.

– Nima sassiq? Bo'yoq-da, ha, isi bor. Nima qipti? Sassiq emish! Billsangiz, shu sassiq boqadi hammamizni. Shunga bosilgan kitoblarningga olasizlar jaraq-jaraq pullarni. Sassig'-a! Mehnatning isi bu! – Topgan gapidan Sojidaning o'zi jo'shdi. – Ha, ishlagandan keyin odamning ham isi bo'ladi. Nimaga burningizni jiyirasiz? Men yaxshi ko'raman, ish-da bu. Ishning isi bo'ladi, kiri bo'ladi. Ishlash kerak, ukam. Kim-kimlarni o'rtaq solib, yonida yurganlarni oyoqosti qilib, valaki salang yurguncha.

A'lam Sojidani har kuni dolonda uchratib, bosh iring'ab salomlashib yurgan bo'lsa-da, hech bunday baqamti gaplashmagan, birga ishlab kelgani bilan, uni mutlaqo bilmas, bilishga qiziqib ham ko'rmagan, hozir ham bu notanish xotin to'rda o'tirib olib, yalang oyoqlarini olinga cho'zib, bir nima achchiq gaplarni aytayotgan, A'lam esa qachon uning oyog'ini bosib olganini bilolmayotgan edi.

– Opa, xo'p. Yozib beraman. Yozayotgan edim o'zi. Chaqirib qolishdi. Bu gap....

– Yo'q, siz avval o'zingizni tuzatib oling. Ha, o'zingizni. Odam eng oldin odam bo'lishi kerak. Bildingizmi? Boshqalarni ham odam o'rnida ko'rishi kerak. Bostirib ketavermasdan.

– Hech tushunmayapman, opa. Kimni bostirib ketibman?

– Bostirmaganingizmi shu? Tushuntirish xatini bitta men so'radimmi? O'zingami? Xonangni hidi bor deysiz. Ayol kishi o'tiribdi demay. Kimlarni ishga solasiz.

A'lam bo'g'ildi, faqat bo'yoq hididan emas, Sojidaning gaplaridan ham.

– Faqat xonangiz emas, hamma yer bo'yoq isi. Sasib ketgan, – dedi u Sojidaga tik qarab – Bu ham sizniki bo'lsa, chorasini ko'ring. Faqat menga, opajon, ochiq gapiring, iltimos.

– Voy, ayol kishiga ham shunaqa qo'pol bo'lasizmi?

– Obbo, muloyimman deb urib o'ldirasiz shekilli?

– Nima? – Sojidaning boshi orqaga ketib, o'tirgan joyida ag'nab tushay dedi. – Voy, men sizni odam deb. Gaplashib olay deb chaqirgan edim-ku. Bu nima muomala?...

«Ha, bu A'lam degani juda tarbiyasiz ekan, u hozir Sojidani tushunishi, tushunganda ham odob saqlab, ayollik hurmatini e'zozlab muomala qilishi kerak edi. Juda goj ekan bu A'lam. Qaerda tarbiya ko'rgan bo'lsa? «Ochiq gapiring» degani nimasi? Sojida shart-shurt aytib tashladi-ku. Bundan ortiq yana qanaqa ochiq bo'lishi kerak?»

– Qani, o'tiring-chi, o'zi nima bilan bandsiz? Mana, bugun nima ish qildingiz? Ertalabdan beri? Tushuntirish xatini olishni ham Surayyo bilan Sojida ikkoviga topshiribsiz. Birovning qo'li bilan tikan yulish oson-da. Harifingizni xotinlar yiqitib bersa, sizga faqat ustiga chiqib tepish qolar edi.

Umarov Abduzafar akaga yalt etib qaradi-da, ko'zini olib qochdi. Ikki qo'lini tizzalari orasiga qovushtirib, yerga tikilib oldi

– Yo menga qarashmoqchi bo'ldingizmi? Menga yordamning keragi yo'q edi. Dastpanjam hali uzun, yoz deyman, yozmasa, ketiga bir tepaman, uchib ketyapti. Quyuni ana o'shanda ko'rasiz. Qanaqa sud? Sud-pud yo'q! Abduzafar akangizni sudga tortadigani hali onasidan tug'ilmagan. Shunday! Bilib qo'ying buni. Men she'rda nechta eshshak borligini sanab o'tirmayman. U – sizning ishingiz. Hisoblang, cho'tga uring, kesing, qaychilang, qiymalang, ixtiyor sizniki – menga siyosiy xatosi topilmaydigan kitob bo'lsin! Mendan plan so'rang, vagon-vagon qog'oz so'rang, ofset so'rang. Allaqanday pushkami, tankami, shunga o'xshagan provokatsion bahslaringni ko'tarib oldimga kirmanglar! Nimaga yozaman emish! Men qayoqdan bilaman nimaga yozishlaringni? Yozgingiz kelibdimi, yozing, yozavering, tortishinglar, bahslashinglar, quloqcho'zma qilinglar. Bir-birlaringning go'shtlaringni yenglar. Haqiqatlaring shunaqa tug'iladimi, bahslashmasa tug'ilmaydimi, tug'ilsin-ey, men chop qilib beraman. Lekin men tomonga o'tib ketmanglar. Bitta bayozni eplay olmay, menga ko'zyosh to'kasiz. Yozib ber desa, Markazkomdan kelasiz. Sizga men direktorman, bilib qo'ying! O'rtaq o'rtoq Islombekova opangizni ham, Markazkomni ham qo'ymang. O'rtoq opangiz bilan men

gaplashganman, sizga Markazkom men bo'laman, tushunarlimi? Chunki, – deya tovushini pasaytirib izoh berdi Abduzafar aka. – Markazkomning hamma topshiriqlari men orqali bajariladi. Markazkomning bu yerdagi irodasi – men, o'ziman.

Tiliga kelgan bu gaplar Abduzafar akaning o'ziga ham favqulodda ta'sir qildi. Kabinet yanada kengayib, boshini quyi solib mung'aygan Umarovning gavdasi birdan kichrayib qolgandek bo'lib, Abduzafar akaning unga ichi achidi. Karim o'zi sal to'qimtabiat-ku, lekin yomon yigit emas. Shu bugungi ishlari ham yaxshi ko'rinaman deb urinishidan. Ertami bir kun Abduzafar aka pensiyaga chiqib ketadigan bo'lsa, bayram arafalarida xabar olgani ikkita nonni qo'ltiqlab boradigan ham o'zi shu Karim. Vag'ir-vug'ur qilgani bilan bechora odam, kamsavod, urilib-surilib, nashriyotga kelib qolgan, Abduzafar aka qo'llab yuribdi-da. Yangi odam buni bir kun ham amalda qo'ymas. Abduzafar akaning o'zi ham mana hozirgidek paytlari juda piypalab tashlaydi. Lekin turg'izib, qoqib-suqib, yana suyib ketaveradi.

– Ey, Karimjon, – deb Abduzafar aka Umarovga bir muddat tikilib qoldi.

Umarov boshini bir ko'tardiyu ko'z urishtirishga botinmadi. qo'lini qovushtirib, yana quyi egilib oldi.

– Nimalarni o'ylab yurasiz. Mana, bugun. Ha, Islombekova telefon qildi. Lekin sizlar o'ylaganday, A'lam masalasida emas. A'lamni men qo'shdim. Hozir aytaman qanday qo'shganimni. Yozda o'tgan seminar natijalari ko'rilgan ekan, mening bundan xabarim bor, o'rtoqlar aytgan edi, Islombekova nashriyotingiz yaxshi qatnashdi, bosib bergan materiallaringiz yuqori baholandi, dedi, rahmat aytdi. Ha, rahmat aytdi. Albatta, norasmiy. Chunki do'st bor, dushman bor, shuncha tashkilotlar turib, Markazkom nomidan faqat bizga rasmiy minnatdorchilik bildirsa, seminar xalqaro edi, bosgan materiallarimiz chet ellarga ham ketgan, keyin borib bir gap chiqsa ham... xullas, nokamtarlik bo'ladi. Lekin biz buni minnatdorchilikdan ham yuqori ko'ramiz. Keyin, Gulya, ha, u bilan raykomsomolda birga ishlaganimizdan beri menga u Gulya, o'zimizning Gulichka-da, maslahat so'radi, yana nima qilsak deb, men, keling, xodimlarimizdan birontasiga shaxsan nomingizdan rahmat aytib qo'yaylik, dedim, Bu gap unga ma'qul tushdi. Kel, Gulichka, quruq bo'lmasin, esdalikka ham biron narsa beraylik, desam, aqlingizga qoyil, o'zinning haqiqiy akamsiz-da, dedi u ham. Aka-singil telefonda chaqchaqlashib o'tirib, kimga beramiz desa, shu, deng, nima xayol bilan Kamolov tilimga kelib qolsa. Bekor aytib yuboribman. Gulichkaning esida ham yo'q ekan. A'lam deyman, Kamolov deyman, shoir deyman, yozda qo'lida ishlaganini aytdim, o'zining TNOsiga mindirib qo'rganini ham bilmadi. Qarang-ey, rosa chekadi, desam, keyin esladi. Ayol-da, didi nozik, oldida bir-ikki tutatgan bo'lsa kerak-da.

Abduzafar akaning ovoqidagi tovlanishlar o'zgarishi bilan Umarov qaddini tiklab, boshini ko'tarib olgan, hozir mahliyo bo'lib, uning har bir gapini bosh iring'ab ma'qullab o'tirar, shu payti jiringlab, suhbatning beliga tepmasin deb, telefonlarga alanglab ham qo'yar edi.

– E-e, xullas, Gulichkaga shu bola bir bechora, hech kimi yo'q, musofir, xotin-bola-chaqasi ham, uyi-joyi ham kitob, lekin talantli, kel, shuni nomiga bir eslab qo'y, birona jurnal-purnalga obuna ber, dimog'i chog' bo'lib, bir umr eslab yuradi, dedim. Gulichka bir minnatdor bo'ldi-ey, hali ham o'zinning akamsiz-da, esingizdami, raykomsomolda sochimdan tortar edingiz, xafa emas, xursand bo'lardim, dedi. Qarang, mening esimda yo'q, u unutmagan, esimga soldi, ot dumi qilib turmaklaganda tortib qo'rgan ekanman. Xay, shu... hozir chaqiray, o'zi bilan ham gaplash, bolaning bir ko'ngli ko'tarilib, hammayoqni tutunga bostirib yuborsin desa, bu Mo'ri yo'q, ko'mir tushirib yotgan ekan. Baxti chopmaganini.

– Obbo, bechora-ey, – dedi Umarov qaddini orqaga tashlab. – Omad kelmasa shu-da. Lekin katta yaxshilik qilibsiz. Ishqilib, biladimi o'zi. Bilib qo'ysin-da axir. Men hali o'zini ko'rmadim. Bola xursanddir?

Abduzafar aka kengfe'llik bilan qo'lini siltadi.

– Yaxshilik qil suvga ot, bilsa – baliq, bilmasa, xoliq. Yoshlarni o'stirish – vazifamiz. Bilsa,

bilmasa – o‘stirishimiz kerak.

– Men ham yosh kadrni sindirib qo‘ymaylik, degan edim-da, – deb ilib ketdi Umarov.

Endi hammasi o‘tdi, Abduzafar aka bilan Umarov yana aka-uka, Abduzafar aka bemalol o‘zini qo‘yib yuborsa, Umarov yastanib o‘tirsas bo‘ladi.

– Yo‘-o‘q, – deb salmoqladi Abduzafar aka. – Karimjon, sizlar sindirmaymiz deb sinadigan qilib qo‘yasizlar. Xatosini ko‘rsatib, to‘g‘ri yo‘lga solish o‘rniga. Ertaga bu kadrni o‘stirishga to‘g‘ri kelsa, o‘rtoqlar sizni bizdan boshqa narsani so‘raydilar. Xarakteristika emas, u hammaga yaxshi deb yoziladi. Bu tomonlaridan biz nega bexabar, bayoz bunday chiqqan ekan, yigitcha bunday xatolarga yo‘l qo‘ygan ekan, qani, hech bir joyda aytilmabdi-ku, xarakteristikangizga o‘zingiz osh pishirib yeyavering, bizga aniq ma‘lumotlar kerak, deyдилar. Tushunarlimi, Karimjon? Mayli, hozir, bugun emas, lekin bir-ikki kunning ichida puxta qilib, tayyorlab qo‘ying, ma‘qulmi? Men aytgan gap yerda qolmasin.

Umarov o‘rnidan chaqqon turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi. Tez-tez bosh irg‘adi.

– Xo‘p, bo‘ladi, xo‘p bo‘ladi. Shu o‘zim ham hayronman, Abduzafar Abdusafarovich, nima topadi shu chet el adabiyotidan? Nazarga tushib turgan yigit, bir kuni pand yeydi-da.

– Endi, Karimjon, bu bir kasal, yoshlarga hozir moxov kelsa ham, chetniki bo‘lsa bo‘ldi. Yoshlar shuni bir yuqtirmasa, ko‘ngli joyiga tushmaydi. O‘lmaydimi, qo‘yavering. Bularning hammasi bir go‘r. Aytganча, shu Gulya, Gulichkaning ham eri musiqachi edimi?

Umarov Gulimoh Yulduzovning erini bilmas ekan, astoydil xijolat bo‘ldi, o‘ng‘aysizlanib, derazaga qaradi.

– Ha, musiqachi – deb savoliga o‘zi javob berdi Abduzafar aka. – Musiqachi bo‘lganda ham g‘alati narsa chaladi, sira oti esimda turmaydi. Staryomi, drevniymi, qiziq, shu... qariyani eslatadi-da. Tirsakday narsa. Puflanadi. Nima bor edi shunaqa?

Umarov xuddi qattiq tikilsa, topib oladigandek, ko‘zlarini lo‘q qildi, bilmadi, jim turmaslik uchun:

– Saksofon? – dedi.

– Yo‘q, – dedi Abduzafar aka. – Aytilishi o‘xshaydi. Keksa, nuroniy, yo‘q, otaxon, yoshi o‘tgan, munkillagan, chol...

– Tak, chol, boboyga o‘xshagan nima bo‘lishi mumkin? – deb Umarov ham ovozi chiqarib o‘ylandi.

– E-e, yashang, – dedi Abduzafar aka birdan zavqlanib. – Boboyga o‘xshagan! Goboy! Goboy chaladi! Goboy! Topgan asbobini qarang. Sen yevropalashib dutor-tanburni pisandga ilmasang, hech bo‘lmasa, pianino chal. Ey, er basamon bir kaltakni puflab yurgandan keyin, rafiqaning nimasidan xafa bo‘lasan. Ha, mayli, bu gaplarni qo‘yib turaylik. O‘tiring, – deb yana xushhol qo‘l siltadi Abduzafar aka. – Bu Vulqonimiz qachon qaytadi? Doston emas, she‘riy ro‘mon bo‘lib ketdi-ku. Taygada ham ayiqqa joy qolmagandir. Siz o‘tiring, o‘tiring, gap bor.

Umarov o‘tirdi.

– Kelishidan darak bormi?

– Biron hafta bor-ov. Ko‘p so‘ramadi-ku.

– Nimani?

– Shu. Haligi... uch yashchik.

– Uch yashchik? Hovuzi bormi? Nima qilyapsiz? U yoqda sharmandamizni chiqarib yurmasin.

– Yo‘q, Abduzafar aka, jigari kasal. Tarjimoni, Todorkovskiyni. E, u yoqda o‘zimizning «Soyaki» juda ketadi-da. Shohid ham Todorkovskiyni «Soyaki»parast deydi.

– Samolyotdan berib yuboryapsizmi?

– Yo‘q, provodnik ukalar bor. Abduzafar aka, qarang. Mana shu klizma, surgu qiladigan yelim xalta bor-u?

Abduzafar aka ijirg‘anib, aftini burishtirdi.

– Ha?

Umarov hiringladi.

– Shuning yangisidan olib, ichini aroqqami, vinogami to'ldirib, og'zini yaxshilab burab, Moskvagami. Vladivostokkami, posilka qilaverasiz, it ham bilmas ekan.

– Qarang-a.

– Qoyilmisiz?

– Qoyil. Hidi chiqmaydimi?

– Yangisini olasiz deyaqman-ku. Xo'p, hidi bo'lsa ham, rezinkaniki-da. Vinoning o'ziniki deb urib yuboraveradi.

– Odamlar nimalarni o'ylab topmaydi. Aroqning o'zi bilan klizma qilganini eshitgan edim, lekin klizmaning idishida aroq ichishni endi eshityapman. Xo'sh, Karim, yaxshi esga soldingiz, bayram ham yaqinlashyapti, juda taqab bormasak-da, hozirdan, a.... Shohidga yuboradigan narsalarni ham provodnik-mrovodnik qilib yurmaysiz. Turdialini jo'natamiz, oyoq-qo'li chaqqon, hafta-o'n kun tajriba almashib kelsin. Moskvadagi o'rtoqlarni shunday kunda yo'qlab qo'yganimiz yaxshi-da. Xo'sh, siz davot-qalamni oling. Men aytib turaman. Yozib olasiz.

Turdiali choynakka umid bilan qaradi.

– Siz boring, – dedi Surayyo. – Hozir u keladi. Bu yerda choy ichib o'tirsangiz, bundan ham bir gap chiqaradi. O'zi bu yoqqa kirganingizni bular menga qarshi bir reja tuzyapti, deb o'ylaydi.

Turdiali bu gapga uncha hayron bo'lmadi, shunchaki yo'liga:

– Yo'g'e? – dedi-da, o'rnidan turdi.

– Undan har baloni kutish mumkin, – dedi Surayyo. – Bir yo'lini topish kerak.

Turdiali ajablendi:

– Bo'ldi, qoldi-ku bu gap?

Surayyo siniq jilmaydi.

– Sojida opam bormi, hali qolmaydi. Bilaman-da.

– Falati-yu. Kasabaning haqqi bormi shunaqa?

– Haqqi yo'q, lekin boshqa gaplar bor, – dedi Surayyo dudmol qilib. – Ularni siz bilishingiz shart emas.

Turdiali burnini ko'tarib havoni hidladi.

– Surayyoxon, xonanizda hid yo'groqmi? Bor-u, juda bilinar-bilinmas. Hozir e'tibor qilibman.

– Ko'rmayapsizmi, biron teshik-tirqish qolmagan, erinmay paxta tiqqanman. Lekin bari bir, eshikni ochib-yopganda dolondan kiradi.

– Kam lekin. Odamning chiqqisi kelmaydi.

– Yo'q. Bo'ldi, endi sizga ham suzilmay, boring endi. Hozir keladi, nima bo'ldi, deb.

– Sizni odamga o'xshab gaplashasiz deb chaqirgan edim, xato qilibman. Tayoqday o'sib ketavergan ekansiz-da, a? Ayol demasangiz, yoshi katta demasangiz. A men kimni urib o'ldiribman? Ukam deb jonim achib chaqirsam, menga shu gapni aytishingiz lozimmi? Tilim bor deb gapiraverasizmi? Hamma gapning javobi bor. Ha!

Juda pangvosh bola ekan bu A'lam, jahl qilishni ham, xafa bo'lishni ham bilmaysan. Firt devor, ha, devorning o'zi, aytgan gaping urilib o'zingga qaytib keladi. Yana ko'zlarini pipiratib, o'zini tushunmaganga solib turaverar ekan. «Tushunmayapman» ham deydi. Yo tavba, shular birovlarining yozgan kitobini tekshirib beradi, hali o'zi ham yozadi!

– Bu derazani yoping. Bo'yoq, oqqani mayli-yu, lekin hidi o'pkani teshib yuboryapti-ku. Jilla qursa, o'zingizga rahm qiling. Men bu yerda o'tira olmayapman.

Sojidaning ko'zlari ola-kula bo'ldi.

– Voy, odamlarni mayna qilishni ja bilar ekansiz.

– Opajon...

– Yana opajon deydi-ya. E-e, sizlarga bekorga yig'lagan so'qir ko'zim. Boring ishingizga-e. Siz bilan boshqacha gaplashamiz.

A'lam o'rnidan turib yelkasini qisdi. Oldida o'tirgan odam emas, ilgari ko'rmagan bir narsasi turgandek, qiziqsinib qarab turdi-da, indamay burilib, chiqib ketdi.

Xosiyat qo'rqib qolgan, ko'zlari najot so'rab alang-jalang qilar edi.

– Naverno, – dedi Irina. – Eto tochno vredno. Poymi, u tebya toje chelovek, on vse chuvstvuet.

– Shunaqami? – deb Xosiyat A'lamga umid bilan qaradi. – Allergiya qilib tug'asan deyapti. Hali bu nafas olmaydi-ku. To'g'rimi?

– No ты je dыshish, – dedi Irina.

– Shunaqami? – dedi Xosiyat.

– Bilmasam. Menga qarang, sizlarga ta'til beradi-ku. Surib yuboring. Shuni ham o'ylab o'tiradimi? Uyda toza havo olib yurmaydimi odam, – dedi A'lam.

– Konechno, – dedi Irina. – On pravilno govorit.

Xosiyat ma'yus iljaydi.

– Kelin bo'lib ko'rmagansiz-da.

A'lam kulib yubordi.

– Shunaqa ham bo'lishimiz kerakmi?

– Boshingizda qaynona vishillab turganda, bilar edingiz: uy yaxshimi, ishmi. Koshki og'iroyoq ekan deb tinim berishsa. Bu yoqqa kelib ozgina dam olaman-ku.

– No etot zapax tebe sovershenno vredno, toksichno, – dedi Irina kuyinib. – Tak ты iskalechish svoyp plod. Mojet davno toksikomanom stal.

– Olasan-da sen ham, – dedi Xosiyat xavotir bilan. – Og'zingdan chiqib yoqangga yopishsin. Ko'ngliga keladi demaydi bular.

– Nu, tak i xodi togda, – dedi Irina.

Sojida bir-bir bosib kadrlar bo'limiga kirdi. Surayyo oldiga besh-oltita qog'oz jildni qo'yib olib, go'yo ishga qattiq berilgan edi, unga manzirat qilib, boshini qimirlatib qo'ydi, xolos. Sojida o'tirdi, Surayyo qog'ozlardan boshini ko'tarmadi, u tomonidagi jilddan bir qog'ozni olib, bu tomonidagi jildga solishtirdi-da, nimadir jiddiy tafovutlarni topdi shekilli, derazaga qarab o'ylanib qoldi, keyin «Hm» deb yana qog'ozlariga tikildi. Surayyo juda band, nafaqat gaplashishga, berilgan savolga «ha» yoki «yo'q» deb qo'yishga ham imkon topa olmas edi.

Qog'oz ishiga Sojidaning tobi yo'q. O'zi Surayyoning xonasiga kirsam, boshi og'rib ketadi. Odamning jonini burab g'iyqillaydigan temir eshik, yopilganda to'qillab uriladi, qulfi ham uchta, yana har kuni so'rg'ichlanadi, ichkari shiftgacha qator temir shkaf. Ha, yana Surayyo hamma yoqqa gultuvak qo'yib tashlagan, bu gul degani nozik bo'lgani bilan sharoit tanlamas ekan, deraza tokchasida ham, shkaflarning orasida ham barg yozib, o'sib yotibdi. Surayyoning o'zi bo'g'ilib ketmaganini. Shuncha gul, qog'ozning ichida. Shkaflar ham to'la qog'oz jild. Shu yerda kim ishlaydi, ishi qanaqa, oilasi qanday, oldin qaerlarda ish qilgan – hammasi yozilgan, raqamlanib, shkafga terib qo'yilgan. Abduzafar aka kimni so'rasa, Surayyo o'sha vaqti topib beradi. Zo'r ish-da, hammaning joni qo'lida, shuning uchun Abduzafar aka bilan sozi yaxshi. Shu, Abduzafar akaning o'ziga ham jild bor: Surayyo xohlasa, hech kim yo'g'ida shu jildni ochib, Abduzafar aka qaerda tug'ilgan, qaerda o'qigan, qachon bitirgan, qachon ishga kirgan, qachon kasbini o'zgartirgan, hammaginasini bilib olaveradi. Kim biladi balki boshqa narsalar ham yozilgandir. Xo'p o'rnashib olgan-da.

Hozir ham Sojida o'tiradi, o'tiradi, shum Surayyo ishdan bo'shamaydi. Go'yo gaplashishga vaqti yo'q. Sojida «Surayyo, ishim zaril, mening gapimga javob bering: nima, hali ham yozib bermayaptimi?», deb so'rasa, Surayyo boshini ko'tarmay, «Hm», deydi, Sojida: «Nima, hm, yozdimi yo endi yozadimi?», deydi, Surayyo unga bir qarab qo'yadi-da, yana «Hm», deydi. Bir gap aytmaydi,

chunki ishi boshidan oshib yotibdi, vaqti yo'q. E-e. hammasi jo'rttaga! Bir gap o'tgan, nimaligini o'zi bildirmaydi, mana shunaqa dim-dim o'ynab, joningdan to'ydiradi endi.

Sojida o'rnidan shart turib dolonga burilgan edi, Surayyo gapirib qoldi.

– Siz ham sal bunday harakat qilsangiz-chi?

– Voy, men harakat qilmayapmanmi? O'zingiz-ku, yarim soatdan beri oldingizda o'tiribman, odam keldi ham demaysiz. Qani, yozdirdingizmi?

Surayyo dastro'molini olib, burnini ko'zlarini artib oldi-da, bamaylixotir:

– Men bu sassiqni aytyapman. Odamlarning sog'lig'iga ta'sir qilyapti.

Sojidaning achchig'i keldi:

– Menga nima? Sasisa sasibdi. Menga, masalan, bilinmaydi, soppa-sog' yuribman. Hatto chuchkirganim ham yo'q. Kimga ta'sir qilgan bo'lsa, o'sha yugursin. Oh-ho, shuncha odam turib, ayol boshim bilan men bochka ko'taramanmi?

Surayyo istehzoli jilmaydi.

– Siz bochka ko'tarmang, vazifangizni qiling, – dedi.

– Qanaqa vazifa?

– Mehnatkashlarning haq-huquqlarini himoya qilish kimning vazifasi, Sojida opa? Kasabaning raisi sifatida siz allaqachon rasman murojaat qilgan bo'lishingiz kerak edi. O'z ishingizni bilmaysizmi?

– Kasaba tashkilotining bo'yoqning hidiga qarshi chiqishi kerakligini birinchi eshitishim, – dedi Sojida qahri kelib.

– Ustavni olib keling, qaerga yozib qo'yganini ko'rsataman, – dedi Surayyo ishonch bilan.

Sojidaning ko'ngliga xavotir tushdi. U ustavni ochib ko'rmagan, ochgani bilan tushunmas, chunki rus tilida, o'zi umuman uning bor-yo'qligini ham bilmas, ustav degani ham ishda sira kerak bo'lmagan edi. Lekin unda kasaba tashkilotining raisi bo'yoq hidiga qarshi kurashishi kerak, deb yozib qo'yilmagani aniq, bu yerda boshqa gap bor, bular bir narsani o'ylagan. Qildan qiyiq axtarayotgani bekorga emas. Sojida shunday qo'yib qo'ymaydi. Hali bular Sojidaning sovuniga kir yuvmadi.

A'lamlarning xonasiga Surayyoning o'zi bordi.

– Irochka. Salom! Xosiy, yaxshimisan? Shu yerda tug'ib, otini Noshirboy qo'yanmi-da oxiri. Siz, o'rtoq progulchi Kamolov, bir qoshiq qonimizdan keching, qachon olamiz? Qani, bu yoqqa, bir qarang-chi, bularga xalal bermaylik. Ha, tezroq qimirlang.

A'lami istar-istamay ergashib chiqdi. Surayyo aksirdi, ovozi baland qo'yib:

– Men bilan elakishmang, – dedi.

A'lami javob qaytarishga ulgurmay tim qora ko'zlarini qisib qo'ydi-da:

– Hech narsa yozmang, – deb tez-tez shivirladi. – Tushudingizmi? Hech narsa! Yozsangiz chora ko'rish kerak. Nashriyot katta, bitta odamga chora ko'rmasa ham ishlayveradi. Lekin yozsangiz, direktor «chora ko'rilsin», deb rezolyutsiya qo'yadi, biz buyruq chiqarib tasdiqqa olib kirishimiz kerak. Shuning uchun yozmang! – Surayyoning ovozi yana balandladi. – Meni bunaqa qiynamanglar. Bitta qog'ozni olish shuncha qiyinmi? Orqangizdan chopib yurishim kerakmi?

Umarov Abduzafar akaning oldidan juda xush kayfiyatda chiqdi. Eshikni yopayotib Vaziraga ikki qoshini ham uchirib qo'ydi. Vazira ham juda yengil tortdi shekilli, qo'lini ko'tarib xo'shlashdi.

Xonasi oldida uni Turdiali poylab turgan ekan. Ha, shu oyoq-qo'li chaqqon, Abduzafar aka yaxshi ko'radigan Turdiali.

– Keling, Turdiali polvon. Xizmat? – dedi Umarov ichkari kirib, joylashib olganlaridan keyin.

Turdiali siniq kuldi.

– Polvonlik qolmadi, aka. Xotinlar ko'tarib uryaptiyu.

– Siz chil bering-da, chil bering, – deb askiyasidan o'zi zavq qildi Umarov. – Xo'sh, nima gap? Bu dunyoda xotin ko'p, qaysisi yiqitdi?

– E-e, hayronman, – dedi Turdiali. – Bu nashriyot kimning qo'lida o'zi? Bu yerda ishlaydigan odamning qadri bormi, yo'qmi? Ijodkor kimligini birov bilarmikan?

– Xo'p, xo'p, – deb sabrsizlandi Umarov. – Tezroq bo'ling. Nima gap o'zi?

– Gulimoh Yulduzovnalaring menga telefon qilsin, bo'lmasa, gaplashmayman, boshqalar menga bir tiyin, deydi. O'zi ismlarini to'g'ri ayta olmaydi, bir Gulimoy deydi, bir Gulixon. Opam eshitib qolsalar.

Umarov o'zini orqaga tashlab, bemalol yastanib kuldi.

– Shunaqa deydimi? Gulimoy, Gulixon deng.

– Savodsiz, o'qimagan.

– Endi, o'qimagandan keyin savodsiz bo'ladi-da, – dedi Umarov soddalik bilan. – Siz ham darrov suyunchiga chopasiz-da. Ha, bozor ko'rgan echkidan qo'rq, degani shu o'zi.

– E quturib ketibdi lekin, Karim aka. Sizni, bilasizmi, nima deydi?

– Bilaman, bilaman, – deb o'ng'aysizlandi Umarov.

– Yo'q eshiting-da, balki bilmassiz, – dedi Turdiali. – Kim bo'пти Umarovlaring, chumchuq pir-r etsa, yuragi shir etadi, chuqurroq nafas olishga ham qo'rqadi, deydi. Siz unaqalardan emassiz-ku, Karim aka?

Umarov qizardi.

– Nachora, Turdiali, xotinlardan qo'rqish kerak, qo'rqamiz ham... Ayniqsa savodi yo'g'idan. Bunaqalari chatoq. Nashriyotda ishlagandan keyin savod puxta bo'lishi kerak. Ha, savodi.

Turdiali Umarovga hayron bo'lib qaradi. Umarovning xayoli uncha joyida emasdek tuyuldi.

– Sizni bir Moskvaga yuborsak, savodingizni oshirib kelsangiz.

– Mening savodimga nima qilibdi? Moskvaga, mayli, jon deb boraman, lekin savoding deganingiz?

Umarov o'z peshanasiga shapatiladi.

– Savod emas, tajriba oshirishga! Bu boshqa gap. Hafta-o'n kun o'ynab kelasiz.

– E-e, unda rahmat, aka, rahmat! Savoding deb qo'rqitib yubordingiz. Qachon, aka?

– Shu yaqin kunlarda. Lekin bu gap o'rtamizda. Xo'sh, nima deydi bu savodsiz?

– E-e, qo'ymayapti-da. Qanaqa xotin o'zi, hech gapga ko'nmaydi. Unga Markazkom ham bir pul. Karim aka, Moskva naqd gapmi? Bu yaxshiligingizni unutmayman lekin. Abduzafar akam aytdilarmi?

Umarov ko'rsatgich barmog'ini labiga bosdi.

– Hozircha, jim, Turdiali. Dilbar yigit bo'lib yuravering. Anavi bolaga ham nasihat qiling, Gulimoh Yulduzovna opa meni biladi, deb o'zidan ketavermasin. Bari bir biz bilan ishlaydi.

– Bo'ldi, Karim aka. O'zim joyiga solaman. Yosh-da hali. Siz u yog'ini to'g'rilang, bu yog'i – menga! Bu yog'i menga.

– Ha, Turdiali, aytgancha, siz bexato yozasiz-a. Chiroyli qilib «empirikritizm» deb yozing. Mana, qog'oz.

Turdiali Umarovga bir qarab qo'ydi-da, egilib, shartta yozdi.

– Mana, nimaga kerak bo'lib qoldi. Yo rostdan ham savodimni tekshiryapsizmi?

– To'ppa-to'g'ri, bitta ham xatosi yo'q. Kerak-da, – dedi Umarov. – Hozircha sir. Obbo Sojida-ey, kim bo'пти Umarov deydimi? O'zi fahmi Xadragacha bormaydi, siz unga o'rtoq Islombekova opani gapiribsiz.

Sojida otashin edi. Umarov ko'zining paxtasini chiqarib ko'rди, olaydi, tikilib qaradi, bir tiyin, ta'sir qilmadi.

– Nima, bu siz, – dedi qo'lini beliga qo'yib. – Bir narsaning mazasiga tushunmadim. Ertalab raftoringiz boshqa edi, hozir teskari. Men aytganday bo'lsin, dedingiz, siz aytganday qildim. Endi qo'y, deyapsiz, lekin qo'yib bo'lmaydi. Progul qildimi, javob berishi shart.

– Xo'p, Sojida, men aytgan edim, gapimni qaytib olyapman – tamom. Keyin hali bu masalaga qaytamiz. Hozir mavridi emas.

– Yo‘q! – dedi Sojida. – Tuflagan tufugimni qaytib og‘zimga olmayman. Haqorat qilganday chiqib ketdi. Kechirim so‘rasa ham kechirmayman. O‘sha, kim, Gulimoy opasi telefon qilsa ham.

– Sizgami, – deb iljaydi Umarov.

– Ha, nima bo‘pti? Men odam emasmi? Kimovna edi, Qunduzovnami, undan o‘zimni kam ko‘rmayman.

– Kam ko‘rmang. Opa Yulduzovna bo‘lsa, siz Quyoshovna-ku. Demak, qaytmaysiz, qo‘ymaysiz?

– Yo‘q.

– Ah-ha. Hm, – deb Umarov o‘ylanib qoldi. Keyin o‘zining o‘ng qo‘lini silashga tushdi. – Shu... qayirib olibman, qalam ushlab bo‘lmayapti. Ikkita so‘zni yozish kerak. Bir soatdan beri qo‘yib yubormaydi-ya og‘riq.

Sojida uning qo‘liga rahm bilan qaradi.

– Bosmaxonaga berish kerak edi. Siz yozib yuboring. – Umarov Sojidaning oldiga bir varaq qog‘oz qo‘ydi. – E-e rahmat. Yozing. «Vilellin». «Vi-le-lin». «Im-prokratism nashnomasi» Yozyapsizmi? Mana, yana qaytaraman.

Umarov hozir aytganini o‘ziday qilib, bo‘g‘in-bo‘g‘in takrorladi. Sojida hafsala bilan yozdi.

– Borakallo, – deb Umarov varaqni Sojidaning oldidan chaqqon olib qaradiyu qoshi peshanasiga ko‘tarildi. – Eh-he! Bu yog‘i necha puldan tushdi? Shpion ham buncha diversiya qilolmaydi-yu. Bir-ikki-uch-to‘rt-besh.. sakkiz... o‘n ikki, bu yoqda to‘rtta xato voy-bo‘, savodni rosa xudo urib g‘ovlab ketgan ekan-ku, Sojidaxon? Bu qanaqasi? Ulug‘ dohiyni qanday yozishni ham bilmaysizmi?

Sojida angrayib qolgan edi.

– Qanaqa dohiy? Hech qanaqa dohiyni aytganingiz yo‘q.

– Bu-chi? – deb varaqqa nuqidi Umarov. – «Vilelin» emish. «V.I. Lenin» deb yozish kerak edi.

– O‘zingiz shunaqa dedingiz-ku.

– Men-a? Hali meni gunohkor qilsangiz edi. Men dohiymizning ism-shariflarini bilmas ekanmanmi? Qanday aytganim bilan nima ishingiz bor? Dohiy-ku bu!

– O‘zingiz...

– Nima o‘zim? A bu-chi? – Umarov xijjalab aytdi. – «Em-pi-ri-o-kri-ti-tsi-zm!» Nechta xato? Sanoqda adashib ketyapman. Oddiy «nash‘u namo» degan so‘zda to‘rtta, yo‘q, beshta xatoga boribsiz. «Nashnoma» emish! Uyat-e!

Hali Sojida ko‘p narsani tushungani yo‘q edi, shuning uchun:

– O‘zingiz odamning aqlini shoshirib qo‘ydingiz, – dedi.

Umarov kinoyali iljaydi.

– Aqlingizni shoshirdimmi? Xo‘p, yaxshi. Unda, bo‘pti. Keling, o‘zingiz boshqattan yozing shu so‘zlarni.

Sojida Umarovga qaradi, Umarov unga boshqa varaq uzatdi.

– Men indamay turaman. Qani, yozing.

Sojida oldidagi qog‘ozga qaradi, peshanasini bo‘rttirdi, yana boshini ko‘tarib Umarovga ko‘z tashladi. Umarovning tikilib o‘tirishidan ko‘ngli seskandi.

– Ha? – dedi Umarov. – Nimaga yozmayapsiz? O‘zim aytaymi, nimaga yozmayotganingizni? Chunki qanday yozilishini bilmaysiz. Lekin bilmasangiz ham tilingizni bermaysiz, aytganga yurmaysiz.

– Men o‘zim uchun emas-ku, – dedi Sojida sal xomsirab.

Umarov orqaga yaslanib, qo‘llarini qorni ustiga chalkashtirdi.

– Siz bizda kim bo‘lib ishlaysiz?

– Kasabaning raisi, – dedi Sojida shuni ham bilmaysizmi degan ohangda.

– Yo‘q, – dedi Umarov. – Kasaba – jamoatchilik-ku. Shtatda nima ishdasiz, deyapman. Oylikni nimaga olasiz? Korrektor shekilli, a?

– Katta korrektor.

– Katta korrektormi? E bu xatolar shunga katta ekan-da,a? Mana, ahvolimiz! Katta korrektor bitta soʻzni oʻn beshta xato bilan yozadi! Dohiyning ism-pamiylasini yoza olmaydi. Toza xudo urib ketgan ekan-da bizni. Yana bu opamiz kasabaning raisi. Quyoshovna!

Sojidadaga endi borib yetdi shekilli, Umarovning oldidagi varaqqa intildi. Umarov esa oʻrnidan turdi, shu varaqni orqasidagi seyfga qoʻyib, sharaq-shuruq qulfladi-da, kalitlarni choʻntagiga soldi.

– Ana shunaqa, opam, xatga tushding, oʻtga tushding, – dedi u senlab. – Savodingga daliliy ashyo boʻlib turadi bizda. Maʼqulmi?

Sojidaning iyagi pastga tushib, ogʻzi ochilgan, yuzi soʻlib, oʻzi ham ancha oriqlab qolgandek edi.

– Yaxshi emas, odamni bunaqa toptash, – dedi u qiynalib. – Yana ayol kishini.

– Ey, menga qara, nima, belingdan quchoqlab, bagʻrimga bosyapmanmi seni? Ayolman, deysan. Menga ayolliging oʻtmaydi. Men uchun korrektorsan, tamom, xat-savodingni soʻrayapman, tushunarlimi? Oʻzingning oʻrningni bilib, aytilgan ishni qilib yurgin, maʼqulmi? Osmonga chiqib ketma. Boʻlmasa, – Umarov orqasidagi seyfga ishora qildi, – joning mening qoʻlimda. Endi, bor, bugun bu yerda arillab yurma, boshim ogʻriyapti deysanmi, qon bosimimi, bir-ikki kun qorangni oʻchir-da, bulitin qil, keyin hech narsa boʻlmaganday yana yuraver. Boʻldimi? Joʻna!

Surayyo nozikkina koʻringani bilan zanjirday pishiq, muloyim qoʻllarida yashirin bir kuch bor edi.

– Boʻyingiz qotib ketibdi oʻzi ham. Bir alpozda oʻtiravergandan keyin...

– Ish shu-da, – dedi Abduzafar aka.

Oʻylab qarasa, shunday-ey: ishga keladi, oʻtiradi, majlisga boradi, oʻtiradi, uyga boradi, oʻtiradi, qaerga bormasin, oʻtiradi, uyquga yotmaguncha, kunni oʻtirib oʻtkazadi. Butun umrini oʻtirib oʻtkazadi shekilli. Boshqa nima ham qilsin?

– Boshingizning tepasi ancha ochilib qolibdi, – dedi Surayyo yana.

– Tepakalingiz demoqchimisan?

– Endi-da...

– Aytaver. Endi yigit boʻlar edikmi? Yosh qaytgandan keyin soch oqaradi, tepakal ochiladi.

Surayyo indamadi, odatdagidek «Yoʻq, Zafarjon aka, hali yoshsiz», demadi, Abduzafar akaning oʻziga oʻzi oʻqigan hukmiga sukut bilan rozilik bildirdi.

– Nima choy ichgan eding?

Surayyo birdan hushyor tortdi.

– Nima edi, Zafarjon aka? Joʻn, hind choyi, popuk bilan.

– Nafasingdan gul isi kelyapti. – Abduzafar aka koʻzini yumib hidladi, yana Surayyoga qaradi. – Ha, bir gulning isi.

Surayyoning yuzi zumda gul-gul ochilib, koʻzlari porlab ketdi. Boshqalardan uncha ajralib turmaydigan bu oddiy juvon baʼzan bir zumda yumuq gʻunchadan shunday chiroyli gulga aylanib ketar ediki, unga qarab oʻtirgan odam hayratdan yoqa ushlardi. Abduzafar aka uning bunday oʻzgarishlarini koʻp koʻrgan, lekin hozir Surayyo faqat chiroyli emas, qanaqadir balandlab ham ketgandek edi.

– Sheʼrni shunaqa yozadilar-da, a? – deb soʻradi yana Surayyo.

Abduzafar aka tushunmadi.

– Qanaqa sheʼrni? Nima deyapsan?

Surayyo Abduzafar akaga xayolchan qaradi, keyin derazaga tomon tikildi.

– Shoirlarni aytaman-da. Gapni odamga yoqadigan, chiroyli aytish uchun sheʼrga solishadi-da. Mana, sendan gul isi kelyapti, dedingiz. Men rosa quvonib ketdim. Shu sheʼr boʻlsa kerak-da. Boʻlmasa, nimaga yozishadi.

Abduzafar aka hayron boʻldi. Bugun Turdiali birovining shunaqa sheʼrini aytgan edimi, «Men nega yozaman?» degan.

– Ha, rostdan, nega sheʼr qilib yozadi? Shuni toʻgʻri aytib qoʻya qolsa boʻlmaydimi? Shap-shap deguncha shaftoli de-da, qoʻy.

– Chiroyli qilib aytish kerak-da, – dedi Surayyo xayolchan. – Hamma narsaning ham faqat o'zini aytaversa, qizig'i qolmaydi. Mana, yaxshi ko'raman, deydi. Gul ham beradi-ku, bo'lmasa gul nimaga kerak?

– Ha, – dedi Abduzafar aka ham o'ylanib – Gul... qiziq lekin.

Bugun umuman yoshlardan g'alati-g'alati gaplar chiqayapti.

Surayyoning bidir-bidir gapirgisi kelayotgan edi.

– Gulni hech narsaga ishlatib bo'lmaydi, faqat chiroyli. Yaxshi ko'rganining qo'lidan tortib olib ketaversa ham bo'ladi, lekin gul beradi, gul bilan ko'nglini oladi. She'r ham shu-da, Zafarjon aka?

Abduzafar aka kiftini qisdi.

– Shunaqa... bo'lsa kerak, – dedi u boshqa nima deyishni bilmay.

– Bizlarning erlarga o'xshab: «Xotin, bo'ldi, o'chir chiroqni, yot oldimga kelib», deb bo'kirmasdan, «jonim, gulim» deb qofiya qiladi, ko'ngilni ovlaydi. Ana shunga yozadi. To'g'rimi, Zafarjon aka?

Abduzafar aka indamay kuldi.

– Shunday, – dedi Surayyo o'ziga ishonch bilan.

– Ha, Vatan, partiya, dohiy mavzulari bor, ular muqaddas, – deb qo'ydi Abduzafar aka.

– Men u tomonini tushunmayman, – dedi Surayyo. – Karpat tog'laridan Kamchatkagacha deb yozishadi, bizlar o'zimizning Samarqandni ham ko'rganimiz yo'q. Men odamga nima kerakligini aytyapman.

– Mayli, bu gapni qo'y. Nima, senga yozib berishsinmi? Aytaman, – dedi Abduzafar aka. – Otingni qofiya qilib yo ichiga qo'yib, zo'r yozib berishadi.

– Kim?

– Mana, Turdiali bor.

– Yo'q, ko'p gapi bachkana. She'ri ham shunaqadir-da.

– Bo'lmasa, kim? A'lammi?

Surayyo o'ylanib qoldi. Abduzafar akaning rashki uyg'ondi.

– Yo'q, – dedi Surayyo. – Aytib yozdirganning nima foydasi bor. O'zining ko'nglidan chiqarib, siz aytmay atab yozsa ekan, unda boshqa gap.

– Siz unaqa chuqur nafas olmang-da, mana, sekin havo yuting, xuddi nafas olmayotganday, – deb Turdiali nafasni qanday olishni ko'rsatib berdi.

Irinaning qimirlamay qarab turishidan shunday qilayotgani ko'rinib turar edi. Xosiyat A'lamga tikildi. A'lam kuldi.

– Balki umuman nafas olmaslik kerakdir?

– Yo'q, nafas olmasa bo'lmaydi, – dedi Turdiali soddalik bilan. – Lekin men aytganday qiling, ko'rasiz, foydasi bor. Aytyapman-ku, qarab turgan odam ham nafas olyapsizmi, yo'qmi, bilmasin. Keyin o'zingizga ham bilinmay ketadi.

– Turdiali, o'zingiz ishonasizmi shunga?

– Juda qiziq odamsiz-ey. Nimaga ishonmayman? Mana, oldingiz-da o'tiribman-ku, sizga o'xshab qiynalman, yashab yuribman. Yo dod solganimni ko'rdingizmi?

– Yo'q, jo'ra, yo hammani ahmoq qilyapsiz, yo sizda hid bilish tuyg'ulari o'lgan, – dedi A'lam.

– O'zingizda kurashchanlik yo'q, do'stim. Odam har qanday sharoitga ko'nikishi kerak, – dedi Turdiali.

A'lam birdan jahl bilan gapirishga tushdi.

– Lekin bunaqa sassiqqa emas. Bu sassiq odamni haqoratlaydi, yerga uradi. Insonlik qadrini oyog'osti qiladi. Nima uchun hech bir aybim bo'lmagan holda, shuncha vaqtdan beri o'pkam teshilib sassiq havodan nafas olishim kerak? Qaysi gunohimga? O'zi nimaga sizlarga arz qilib o'tiribman?..

A'lam birdan indamay qoldi. Xosiyat biqinini ushlab bukchayib oldi, Irina uning yoniga shoshildi.

Bugun ham o'tdi-ey. Hech bir ish qilingani yo'q, lekin asabozlik bir dunyo. Yo'q yerdan yo'q xavotir, bo'lmag'ur tashvishlar. Shunga qancha odam xafa, qanchasi bezovta. Odamning hayoti shunaqa maydami, a? Kun ketidan kun o'tadi, tashvishing borgan sari ziyoda, qilgan ishingning tayini yo'q, Ertalab, nima ekan, deb hovliqavermay, tinchgina kutsa, u yoqdan nimaligi ma'lum bo'lar, bu yoqdan bunisi o'z oyog'i bilan kelib, ko'mir tushirganini aytar ekan-ku. Tamom, vassalom. Shuncha vahima, asabozlik bekorga. Mana, odam umrini nimaga behudaga sarflaydi.

Abduzafar akaning dolonga chiqib, oyoqlarining chigilini yozgisi keldi, u haligacha dolonga chiqmaganini, chiqqan bo'lsa ham, bemalol yurib kelmaganini esladi. Lekin shu payti qog'oz teztikkichni ko'ksiga mahkam bosib, Surayyo kirdi. Abduzafar aka nimadir yuz berganini angladi.

Surayyo teztikkichning ichidan bir varaq qog'ozni yuzaga olib, teztikkichni Abduzafar akaning oldiga qo'ydi.

– Mana, arizasi.

Abduzafar akaning yuragi shuvillab ketdi.

– Kim? – dedi u kimligini o'qib turgan bo'lsa ham.

– A'lam Kamolov.

– Bunaqa gap yo'q edi-ku. Nima bo'libdi ekan?

Surayyo yelkasini qisdi.

– Bilmadim. Men bu yerda vaqtim, Turdialiga berib qo'yasan, deb beribdi-da, o'zi surib yuboribdi. Narsalarini ham yig'ishtirib ketgan.

– Kim xafa qildi ekan? – deb o'ylandi Abduzafar aka.

– O'zini birovga xafa qildirib qo'yadigan emas u, – dedi Surayyo.

– Qizig'-u. Xo'p, Turdialini ayt, kirsin.

– Bunaqa gap yo'q edi, Abduzafar aka. Birdan ariza yozdi-da, ketdi-bordi. E-e, rosa gapirdim, qulog'iga kirmadi, bu yerda ishlamayman, tamom, deydi. Men avval Sojida opaga achchiq qilyapti deb o'yladim.

– Nimaga Sojida?

– Ey-y, bu opa ham olkish desa tappa talaydi. Lekin bunga emas. Shu, chidamayman, deydi. Chidagan chidayversin, men emas, deydi. A shuncha odam ishlayapti, ulardan nimang ortiq, desam, unda men odam emas ekanman, deydi.

– Nima ekan bo'lmasa?

– Shu sassiqqa chidamas emish-da?

– Qanaqa sassiqqa?

– Mana shu, bo'yoq isiga. Hamma yoq sasib ketgan, bu havodan nafas olmayman endi, deydi. Tamakining tutuni mayli, bo'yoq isi bo'lmaydimi? Shuncha odam chidab yuribmiz, sen nima, osmondan oyog'ingni osiltirib tushdingmi, oksuyakmisan...

– Turdiali, o'zingizdan qo'shmang. Bor gapni ayting: kimdan norozi?

Turdiali dum-dumaloq ko'zlarini Abduzafar akaga to'g'ri qadadi.

– Shu... ko'mir tushirishi kerak emas edi-da.

Abduzafar aka ajablandi.

– Nimaga? Ko'mir tushirasani deb biz azobladikmi? Nima deb galdiraklaysiz?

– Abduzafar aka, ertalab aytdim-ku sizga, men bularga do'st emasman, deb. Bular, bilasizmi, qanday aytsam, dunyoni o'ylamaydigan odamlar, bir quchoq kitob, to'rt quti sigaret bo'lsa bo'ldi. Mana, A'lam, turgan joyini kitobga to'ldirgan, bilasiz-a, kitobning ham chayqov bozori bor, o'sha yerda ham bu oshnalar orttirgan, qishni o'tkazish masala bo'lib turgan edi, bugun ko'mirni tushirib oldi. Muammo yo'q.

– Markazkomga bormadimi?

– Borib pulini to'lab, kvitantsiyasini olib keldi. Opaning o'zlarining oldiga kirmabdi. Zaril ishim bo'lmasa, nima qilaman vaqtlarini olib deydi.

- Kirmagani ham yaxshi bo'libdi, – deb ovozini chiqarib o'yladi Abduzafar aka.
- Nimaga? Rahmat aytib qo'ysa bo'ladi-ku?
- Arizasini qaytarib oladimi?
- Yo'-o'q, – deb boshini chayqadi Turdiali.. – Hech ham. Bilaman-da. Endi qaytmaydi. Endi sira qaytmaydi. Bular shunaqa.

Abduzafar akaning dolonga chiqqisi keldi. Uning kabineti ko'cha tomonda, shuvillab o'tib turgan avtolar oqimining tepasida joylashgan bo'lsa-da, bu yerda ham bo'yoq isi qamalgan, kirib-chiqib yurganga uncha bilinmagani bilan harakatsiz o'tirgan odamga ancha ta'sir etar, e'tibor qilganda esa diqqatni oshirib yuborar edi. Shu vaqti yana Vaziraning g'ayrati kelib qolganini qarang, mashinkaning chiqillashi dermantin qoplangan eshikdan o'tib kelib, quloqni teshib yuboray deydi-ya.

Abduzafar aka sekin dolonga chiqdi. Vazira u chiqqan payti mashinka qilishni bir muddat to'xtatdi-yu, orqasidan yana chiqillatishga tushdi. Dolonda hech kim ko'rinmadi. Lekin nimagadir Abduzafar aka hozir dolonda odamlarning yurishini istayotganini angladi. Ha, o'rtadagi anavi ustunning yonida A'lam tutatib turgan bo'lar edi. Hozir yo'q. Maza-ya shularniki, xohlasa ishlaydi, xohlamasa – yo'q. Bemalol bo'shab ketaveradi. Yuqoridan ruxsat ham so'rab o'tirmaydi! Ushlab turadigan hech narsasi yo'q. Partiyasiz. Qishi bilan o'qiydi, yozadi, yotadi, bitta qorin bo'lsa, to'yadi-da.

Abduzafar aka qo'lini orqaga qildi, uch-to'rt qadam yurib sekin «hu-ush-sh» deb hushtagini boshladi, lekin o'xshamadi, lablari qovushmay, hushtak o'rniga qandaydir vishillagan tovush keldi, allanechuk ayanchli. Hatto Surayyoning yugurib chiqib, «Voy, Zafarjon aka. Sizga nima bo'ldi, odamni izza torttirmang. Shu vishillashingizni kabinetingizda qiling», deb yig'lamsirab qarab turishi ko'z oldiga kelib, ko'ngli bir turli bo'lib ketdi.

Xudoga shukr!

2007 y.